

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

**“Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini
takomillashtirishning usul va xususiyatlari” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



Bajardi: “Boshlang'ich ta'lif va sport tarbiyaviy ish” ta'lif yo'nalishi bitiruvchisi

4-kurs talabasi Sattarova N.S _____

Ilmiy rahbar: _____ katta o'qituvchi Karimova B.X

Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____ sonli bayonnomasi “_____” _____ 2016 yil.

TERMIZ – 2017yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

“Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirishning usul va xususiyatlari” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang'ich ta'lif va sport tarbiyaviy ish” ta'lif yo'nalishi bitiruvchisi
4-kurs talabasi Sattarova N.S _____

Ilmiy rahbar: _____ katta o'qituvchi Karimova B.X
Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
_____ sonli bayonnomasi “_____” _____ 2016 yil.

TERMIZ – 2017yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

**"HIMOYAGA TAVSIYA ETILSIN"
PEDAGOGIKA FAKULTETI
DEKANI M.MIRZAYEV
" _____ " _____ 2017 YIL**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT
TARBIYAVIY ISH TA'LIM YO'NALISHI BITIRUVCHISI
SATTOROVA NAZIRA SAFAR QIZINING BAKALAVR DARAJASINI
OLISH UCHUN YOZGAN**

**"Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini
takomillashtirishning usul va xususiyatlari" mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: Karimova B.X
Talaba: Sattarova N.S**

TERMIZ – 2017yil

MUNDARIJA

KIRISH.....
I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA TASHKIL ETILADIGAN TARBIYAVIY ISHLARNING NAZARIY ASOSLARI.....
I.1.Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida.....
I.2. Bayram tadbirlari ishlarini tashkil qilish prinsiplari.....
Bob bo'yicha xulosalar
II BOB. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI BILAN O'TKAZILADIGAN BAYRAM TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....
II.1. Darsdan tashqari vaqtarda ta'lim-tarbiya muassasalarida bayramlarni ommaviy tadbirlarni o'tkazish usullari
II.2. Interfaol metodlar orqali bayram tadbirlarini takomillashtirish.....
Umumiylar.....
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....
Illova.....

K I R I SH

Mavzuning dolzarbliji: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng kelajagimiz vorisi bo'lgan yoshlar tarbiyasiga katta e'tibor qaratildi. Jumladan, 2014-yil 19-fevralda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Sog'lom bola yili" Davlat dasturiga bag'ishlangan "Farzandlari sog'lom mamlakatning kelajagi buyukdir" ma'rzasida shunday deyiladi: "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturining amalga oshirilishi samaralari mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilayotgan ulkan e'tiborning yaqqol tasdig'idir."¹.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, yosh avlod ma'naviy tarbiyasi nechog'li ahamiyatli va kechiktirib bo'lmas masaladir. Chunki, bugungi yoshlar ertangi O'zbekistonning kelajagi va bunyodkorlaridir.

O'zbekiston Respublikasining istiqlolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'liga ega bo'lishi, xalq xo'jaligining turli sohalarida, jumladan xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq jarayonini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

¹ Karimov I.A "Sog'lom bola yili" Davlat dasturiga bag'ishlangan "Farzandlari sog'lom mamlakatning kelajagi buyukdir" ma'rzasasi. Toshkent, 2014yil, 19-fevral

Bayram tadbirlarini tashkil qilishni samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq.

Bayram tadbirlarini tashkil qilish davr talabiga javob beradigan holga barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobjiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Bayram tadbirlari asosida tashkil qilingan tarbiyaviy ishlar huquq-targ'ibot organlari, ijodiy uyushmalar, Davlat va nodavlat jamg'armalar, qo'mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzlusiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qiladi.

Tarbiyaning bosh maqsadi - yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'analarga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Istiqlolning ilk kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ko'rsatayotgan g'amxo'rlik ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, uning zaminini mustahkamlash uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirish edi.²

Shunday ekan o'quvchi yoshlarda ijodiy faollik, aqliy zakovat, axloqiy salohiyat, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni keng qamrovli ijtimoiy - foydali ishlarga faol ishtirok etishlarini shakllantirish uchun, maktablarda o'tkaziladigan ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlarining alohida o'rni bor.

² S.S.G'ulomov va b "Ta'lif-tarbiya sifati va qirralari". T.: Fan va texnologiya 2004yil. 435 bet.

Shuningdek,bayram tadbirlarini o'tkazilishi tarbiya oldiga qo'ygan maqsadga erishish uchun xizmat qiladi.

Bayram tadbirlarini o'tkazishda albatta Hadis ilmiga murojaat qilmoq kerak.Hadis-Qurondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba.U Muhammad payg'ambarning hayoti va faoliyati,uning diniy va axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi.³

Demak, har jihatdan barkamol shaxslarni tarbiyalash mamlakatimiz oldida turgan dolzarb vazifa ekan, avvalo bunday shaxslarni tarbiyalab, voyaga yetkazish uchun boshlang'ich sinflarda tahsil olayotgan murg'ak qalb egalarilarining ongiga ona Vatan, Vatanni sevmoq, Vatan taraqqiyotiga hissa qo'shish kabi tushunchalarni chuqurroq singdirish lozimki, shu ruhda tarbiya topayotgan yosh avlod kelajakda mamlakat, xalq manfaatlarini o'z manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan yetuk insonlar bo'lib yetishadilar. Bunday shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazishda ta'lim va tarbiya jarayonining almashinib bo'lmas o'z o'mi bor. Shuningdek, dars jarayonining davomi sifatida yo'lga qo'yiladigan sinfdan va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi ham o'quvchilar hayotini zavq-shavqqa to'ldirish bilan birga mamlakatimiz rivoji uchun barkamol insonlarni tarbiyalab berishdan iborat. Maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etiladigan sinfdan va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, amalda qo'llay bilish, kasbga yo'naltirish, xalqimizning boy merosi, an'analari bilan yaqindan tanishtirish kabilarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bayram tadbirlarni maktablarda ko'proq tashkil etilishni taqozo etiladi. Chunki, kichik maktab yoshidagi bolalar o'ta qiziquvchan, o'yinqaroq, taqlidchan bo'ladilar, ular tadbirlarda ishtirok etishdan katta zavq oladilar. Tadbirlarni maktablarda tashkil etishda milliy qadriyatlarimiz namunalari boy manba bo'lib hisoblanadi. Bunday tadbirlarda o'quvchilar mashhur allomalarimiz, vatanparvar insonlarning Vatan uchun olib borgan kurashlari, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishib boradilar hamda ularda ham Vatanga e'tiqod, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, insoniylik kabi hislatlar tarbiyalanib boradi.

³ O.Xasanboyeva va b "Odobnama o'qitish metodikasi".T.: Bilim nashriyoti-2003yil.223 bet.

Shu boisdan 1993 yil “Maktabdan va sinfdan tashqari ishlar konsepsiysi” yaratildi. “Maktabdan va sinfdan tashqari ishlar konsepsiysi”si maktablarda tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlarni yo‘lga qo‘yish, ularning mazmunini milliy qadriyatlar namunalari bilan boyitish, yetishib kelayotgan yosh avlodni har taraflama barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasini o‘z ichiga oladi.

Bu borada yoshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda sharq mutafakkirlarining duru javohirga teng ma’naviy meroslari dasturilamal bo’la oladi.⁴

O’quvchi-yoshlarimizni bo’sh vaqtlarini unumli va mazmunli o’tkazish, o’zlari tanlagan kasb-hunarlarini bo'yicha qiziqish va mahoratlarini oshirishlariga yordam ko’rsatadi. Ularning bo’sh vaqtlarini qoldirmasligimiz ularni begona g’oyalarga ergashmasligiga yordam beradi. Zero, tafakkuri boy yurt va jamiyat rivoji uchun xizmat qiladigan yoshlarni kamol toptirish har birimizning vazifamizdir. Biz farzandlarimizni ana shunday illatlardan, ko‘cha-kuyda bemaqsad yurishlardan xoli qilib, befoyda va zarar keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanishlariga bo’sh vaqt qoldirmasligimiz kerak. Ularga milliy madaniyatimiz, ma’naviyatimiz asoslarini, axloq va odob tushunchalarini singdirishimiz lozim. Bu kabi ishlarni amalga oshirishda sinfdan tashqari bayram tadbirlarini tashkil etib borish shu bilan birgalikda boshlang’ich sinflar darsliklarida xalq og’zaki ijodiyotining, xususan, ertaklarning aks etishini o’rganish va ulardan do’stlik, o’rtoqlikka doirlarining o’rni va imkoniyatlarini ham aniqlash zarurdir.

Shuning uchun biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini “Boshlang’ich sinf o’quvchilari bilan o’tkazilgan bayram tadbirlarini takomillashtirishning usul va xususiyatlari” mavzusi deb nomladik.

Mavzuni o’rganilganlik darajasi:

Bitiruv malakaviyning ish maqsadi: Boshlang’ich sinf o’quvchilari bilan o’tkaziladigan bayram tadbirlarini interaktiv metodlar asosida takomillashtirish.

Bitiruv malakaviy ishning ob’ekti: Boshlang’ich sinflarda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlarni o’rganish jarayoni

⁴ A..Q.Munavvarov “Pedagogika”.T.:O’qituvchi nashriyoti, 1996 yil.199 bet.

Bitiruv malakaviyning ish predmeti: Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarining mazmuni, shakl va usullari

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

1. Mazkur muammoning pedagogik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish.
2. boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirishning mavjud holatini o'rganish va tahlil qilish.
3. boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirish omillarini aniqlash
4. bayram tadbirlarini takomillashtirishda –interaktiv metodlar asosiy vosita ekanligini tahlil qilish.

Bitiruv malakaviyning ish ilmiy farazi: -

- Muammoning pedagogik xususiyatlari o'rganilsa;
- boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirishning mavjud holati o'rganilsa va tahlil qilinsa;
- bayram tadbirlarini takomillashtirish omillari aniqlansa kutilgan samaradorlikka erishish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:

“Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirishning usul va xususiyatlari” muammosi pedagogik yo'nalishda ilk bor bitiruv malakaviy ish mavzusi sifatida tadqiq etildi.

Bitiruv malakaviyning ish metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining ”Ta'lif to'g'risida” gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov asarlari, Boshlang'ich ta'lif Konsepsiysi, Davlat ta'lif standarti, Hadis manbalari.

Bitiruv malakaviyning ish nazariy va amaliy ahamiyati: tarbiyaviy tadbirlarning turlari keltirib o'tildi va ularidan boshlang'ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib berildi. Ushbu g'oyalardan boshlang'ich sinf o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tadqiqot metodlari: nazariy tahlil, kuzatish, suhbat, anketa.

Ishning sinovdan o'tishi: tadqiqot ishi yuzasidan tajriba-sinov ishlari Termiz shahridagi 10-umumiyl o'rta ta'lim mакtabida olib borildi.

Bitiruv malakaviy ish natijalarining amaliyatga tadbiq etilishi: Ilmiy to'plamda chop etilgan maqolalar orqali amaliyatga joriy qilindi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to'rt paragrif, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA TASHKIL ETILADIGAN

TARBIYAVIY ISHLARNING NAZARIY ASOSLARI

I.1.Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Zero, jamiyatda kechayotgan islohotlarning samaradorligi uning fuqoralari ega bo'lgan ma'naviyatiga bog'liq.

Shu sababli ham mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov yosh avlod tarbiyasi va uning ma'naviyatini shakllantirishga asosiy e'tiborni qaratib: "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi"⁵- degan edilar. Darhaqiqat, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, yosh avlod ma'naviy tarbiyasi nechog'li ahamiyatli va kechiktirib bo'lmas masaladir. Chunki, bugungi yoshlar ertangi O'zbekistonning kelajagi va bunyodkorlaridir.

Demak, har jihatdan barkamol shaxslarni tarbiyalash mamlakatimiz oldida turgan dolzarb vazifa ekan, avvalo bunday shaxslarni tarbiyalab, voyaga yetkazish uchun boshlang'ich sinflarda tahsil olayotgan murg'ak qalb egalarining ongiga ona

⁵ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat 2008., -4 b.

Vatan, Vatanni sevmoq, Vatan taraqqiyotiga hissa qo'shish kabi tushunchalarni chuqurroq singdirish lozimki, shu ruhda tarbiya topayotgan yosh avlod kelajakda mamlakat, xalq manfaatlarini o'z manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan yetuk insonlar bo'lib yetishadilar. Bunday shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazishda ta'lim va tarbiya jarayonining almashinib bo'lmas o'z o'rni bor. Shuningdek, dars jarayonining davomi sifatida yo'lga qo'yiladigan sinfdan va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi ham o'quvchilar hayotini zavq-shavqqa to'ldirish bilan birga mamlakatimiz rivoji uchun barkamol insonlarni tarbiyalab berishdan iborat. Maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etiladigan sinfdan va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, amalda qo'llay bilish, kasbga yo'naltirish, xalqimizning boy merosi, an'analari bilan yaqindan tanishtirish kabilarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bunday tarbiyaviy tadbirlarni maktablarda ko'proq tashkil etilishni taqozo etiladi. Chunki, kichik maktab yoshidagi bolalar o'ta qiziquvchan, o'yinqaroq, taqlidchan bo'ladilar, ular tadbirlarda ishtirop etishdan katta zavq oladilar. Tadbirlarni maktablarda tashkil etishda milliy qadriyatlarimiz namunalari boy manba bo'lib hisoblanadi. Bunday tadbirlarda o'quvchilar mashhur allomalarimiz, vatanparvar insonlarning Vatan uchun olib borgan kurashlari, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishib boradilar hamda ularda ham Vatanga e'tiqod, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, insoniylik kabi hislatlar tarbiyalanib boradi. Mustaqillikdan keyin mavjud ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni dunyo andozalari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, barkamol insonni tarbiyalash Respublika ijtimoiy tarqqiyotida ustuvor soha deb belgilanganligi bois maktablarda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratildi. Shu boisdan 1993 yil "Maktabdan va sinfdan tashqari ishlar konsepsiysi" yaratildi.

Ma'naviy yangilanish-islohotlar amalga oshirilayotgan har bir mamlakatda ro'y beradigan ijtimoiy hodisalardan biri bo'lib kelgan. Ma'naviy yangilanish-bu avvalo, xalqimizning boy milliy-ma'naviy merosini xolis o'rganish, yosh avlodni ana shu qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning milliy tafakkurini har qanday yot

qarashlardan poklashni taqozo etadi. Ma'lumki, har bir shaxs, jamiyatning ma'naviy takomili unda amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mazmuni, shakl, metodlariga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari, nutq va maqolalarida ma'naviyat va ma'rifikat masalalariga birinchi darajali ahamiyat berilgan.Unda bayon qilingan fikr va qoidalar asosida ma'naviyat va ma'rifikatning ilmiy asoslari va uni rivojlantirishga qaratilgan qator dasturlar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etilmoqda.

Ma'rifikatparvarlar M. Behbudiy, A.Avloniy, A.Shakuriy va boshqalarning ta'lim-tarbiyaviy g'oyalari ta'lim tizimida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mazmunini takomilashtirishga asos bo'ladi. Shu bilan birgalikda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ilmiy-nazariy va metodik asoslari mamalakatimiz pedagog olimlari tomonidan ham tadqiq etilgan. Xususan shaxs ma'naviy madaniyati va uni shakllantirishning pedagogik xususiyatlari hamda unga yangicha metodologik yondashuv masalalari(O.Musurmonova) yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda oila va milliy qadriyatlarning ahamiyati(M. Inomova) yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy madaniyat va uni tarbiyalash(U.Mahkamov) masalalari shular jumlasidandir.

Ayniqsa, S. Ochilovning "Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari (O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov asarlari misolida) nomli tadqiqot ishi alohida ahamiyat kasb etadi. "Boshlang'ich ta'lim Konsepsiya"sida (mualliflar: Q. Abdullayeva, R. Safarova va b.) ta'lim jarayonini tashkil etish, uning samaradorligini oshirish va bu jarayonni rivojlantirishga qaratilgan qarashlar, pedagogik nazariya hamda bilimlar, ilmiy farazlar fondi sifatida boshlang'ich sinflarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning hal etilishi lozim bo'lgan jihatlari mavjudligini ta'kidlaydi. Shu bilan birgalikda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashning turli qirralari yoritilgan.

Ammo, boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan bayram tadbirlarini interaktiv metodlar asosida takomillashtirish ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini

oshirish tadqiq etilishi yetarli darajada emas. Bu esa “Boshlang’ich sinf o’quvchilari bilan o’tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirish” mavzusini tadqiq etishimiz uchun asos bo’ldi. Takomillashtirish omili safatida esa interfaol metodlar imkoniyatlarini o’rganishga harakat qilindi.

O’quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o’z mazmuniga ko’ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi.⁶

Buning uchun esa boshlang’ich sinflarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishga e’tibor bilan yondashish lozim. Chunki, boshlang’ich sinf o’quvchilari bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishda sinfgdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning boy tizimidan unumli foydalanilsa, bolalarda yaxshi fazilatlarni shakllantirish, o’quvchilar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko’rstayotgan omillarning oldini olish mumkin bo’ladi. Bu tizim tanlovlari, sport musobaqalari, teatrlashtirilgan bayramlar, aytishuv shaklidagi tadbirlar, o’yinlar, badiiy kechalar, sinfdan tashqari o’qishlar, Mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni, O’qituvchilar va Murabbiylar kuni, Navro’z bayrami, Yangi yil bayrami, Hosil bayrami, Alifbe bayrami ,Boysun bahori va boshqa qator tadbirlarni o’z ichiga oladi. Mazkur bayram-tadbirlar sinf rahbarlari, maktabning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosarlarining yillik tarbiyaviy ishalr rejalarida ifodalanadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda, jamiyatimizning kelajagi bo’lmish boshlang’ich sinf o’quvchilari bilan o’tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirib borish muhim ahamiyatga egadir.

O’quvchilarni musiqiy ommaviy tadbirlarga jalb etish, tashkiliy tayyorgarlik jarayonida har bir tadbir mazmuni, mohiyati haqidagi suhbatlar, o’quvchilarni tasavvur va tushunchalarini kengaytirish bilan xayotga faol va qizg’in munosabatlarini ham shakllantiradi.

Maktablarda o’tadigan turli sohadagi taniqli, ilm-fan, san’at madaniyat, adabiyot, qishloq xo’jaligi namoyondalari bilan uchrashuvlar ham katta ahamiyatga molik tadbirlardan hisoblanadi. Bunday tadbirlarga bag’ishlangan badiiy kontsert dasturlari ham o’z navbatida tarbiyaviy xarakter kasb etadi. Ijodkorlarning san’at va

⁶ R.A.Mavlonova, B.Normurodova “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”. Toshkent 2012yil. 140 bet.

madaniyat, uning xayotiy ahamiyati haqidagi fikrlari, o'z ijodlaridan namunalar o'qishi. Hayotiy tajribalari haqida suhbatlari har bir qatnashchining xayotga munosabatida ma'lum o'zgarishlar sari undaydi.

Ma'lumki, maktab hayotida musiqa o'qituvchisining faoliyati juda xam ko'p qirralidir. Maktabda musiqiy-estetik tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari faoliyatlar jarayonida uni takomillashtirish, mazmundorligini oshirib borish katta ma'suliyat yuklaydi. Mana shu faoliyatda uning qanchalik o'z kasbiga fidoyiligi, o'quvchi - yoshlarni sevishi ular taqdiriga ma'suliyati namoyon bo'ladi. Xuddi shu ma'suliyat xissini to'yan va o'z kasbini sevgan va ulug' maqsadlar sari intiluvchi o'qituvchi o'zining kasbiy faoliyati taqozosidan kelib chiqib turli-turli tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishga har doim mas'uliyat bilan yondashish lozim bo'ladi. Shunday ekan musiqa tarbiyasining ommaviy shakllari biz yuqorida to'xtalib o'tgan tadbirlar bilan cheklanib qolmaydi.

Musiqa o'qituvchisining mакtab ma'nавiyat ishlari bo'yicha direktor o'rindbosari bilan bamaslahat tarzda vaqtı-vaqtı bilan o'quvchilarni san'at va madaniyat dargohlariga ekskursiyalar uyushtirish ham muhim ahamiyatga egadir.

Xalqimizda "ming marta eshitganidan, bir marta ko'rghan afzal" degan maqol bor. Albatta san'at dargohlarida (teatr, filarmoniya, ijodiyot uylari) va kontsertlarga tashrif va u yerdagi professional jamoalarning musiqa san'atining turli yo'naliishlari va janrlari bo'yicha ijrolari, xatto repitetsiyalari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. San'atga ishtitoqmand yoshlarni xavaskorlarini kuchayishiga va o'z ko'rGANLARI va eshitganlarini "o'zicha" takrorlash va taqlid qilishga o'sha ko'rGAN san'atkori darajasida ijro etishga intilib xarakat qilishiga olib keladi.

Hozirgi kunda maktablarda "Alifbe" bayramlarini qizg'in tayyorlarlik bilan o'tkazish an'anaga aylangan. Mana shu bayramlarni sinf o'qituvchisi va musiqa o'qituvchisining o'zaro hamkorligidagi tayyorlangan dastur asosida o'tkazilishi ularni qiziqarli, ta'sirli va ko'ngilli o'tishini ta'minlashda muhim omil bo'ladi.

Hatto muhtaram Birinchi Prezidentimizning asarlarida ham tarbiya haqidagi fikrlar uzluksiz keltirilgan. “Yangi avlodni tarbiyalash xalqni tarbiyalash demakdir”.⁷

Shunday ekan yangi avlodni bor kuch-qudratimizni ishga slogan holda amalgamoshirmog’imiz kerak.

O’quvchilarni turli madaniy tadbirlarning konsert dasturlarida chiqishlariga intilish va sharoit yaratish o’quvchilar uchun o’ziga xos sinov vazifasini bajaradi. Ularda ishonch xissini tug’diradi va sahna madaniyati bilan tanishtiradi.

Musiqiy ommaviy tadbirlarda o’qituvchi - rahbar o’zining asosiy maqsadini hech qachon unutmasligi kerak. Bu to’garak mashg’ulotini, ayrim bayram tadbirlariga tayyorlanayotgan konsert dasturimi yoki ko’rik tanlovlarga tayyorgarlikni, qatiy nazar o’quvchilarning musiqa xaqidagi vokal - xor va ijrochilik malakalarini shakllantirish, musiqiy - nazariy bilim, ko’nikma va shakllantirib borish bilan yondashish kerak. Barcha tadbirlami o’tkazish bilan u haqida suhbatlar o’tkazib borishi, san’at va madaniyat sohasidagi yangiliklardan o’quvchi-ishtrokkhilarni xabardor qilib borishi lozim.

Shuni ham ta’kidlab o’tshi joizki, musiqa tarbiyasining ommaviy shakllari ham o’z mazmun va mohiyatiga ko’ra bir maqsad yo’lida xizmat qiladi. Shunday ekan musiqa darslarida olingen malakalar mana shunday ish shakllarini tayyorgarlik va o’tkazilishi jarayonida amaliy ahamiyat kasb etishi lozim.⁸

Umumta’lim maktablaridagi musiqa o’qituvchisining ommaviy ishlar rejasi maktab ma’muriyati tomonidan tasdiqlanadi. Ommaviy musiqiy ishlar rejasi yillik kalendar asosida va maktabning ko’p yillik hayotiy an’analari, imkoniyatlari va mavjud xavaskorlik to’garaklari imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda maktab musiqa o’qituvchisi va maktabning ma’naviy tarbiyaviy ishlar bo’yicha direktor o’rinnbosari maktab yetakchisi bilan hamkorlikda tuziladi. Ommaviy ishlarning ayrimlari o’quvchilar yoshiga qiziqishlari va bayramlar uchrashuvlar mazmunini hisobga olgan holda tuziladi. Ommaviy musiqa mashg’ulotlarning har biri aniq

⁷ Karimov I.A. “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish-eng oily saodatdir ”.T.:O’zbekiston NMIU,2015 yil.301bet.

⁸ Ashurova. Z.Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.:Istiqlol. 2003 y, 150 b.

ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshiriladi. Bunda har bir mashg'ulot turiga qarab uning maqsadi, qanday vazifani bajarishi, mashg'ulotining xususiyati, repertuar mazmuni maktab imkoniyatlari, tadbirlarga taklif etiladigan mehmonlar, o'tkazilish joyi, uning bezatilish holati, kerakli musiqa cholq'ulari, texnik vositalar hisobga olinib o'quvchilar jalg' etiladi.

Ta'lism sohasida olib borilayotgan har bir ish bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama ma'naviy va ma'rifiy jihatdan o'zini tuta bilgan, o'z sha'ni, g'ururini himoya qila oladigan darajada ko'rishni istaydi.⁹

Madaniy ommaviy tadbirlar o'z xususiyatiga ko'ra ommaviy, yani, unda alohida iqtidori bo'lgan o'quvchilar to'garak qatnashchilari bilan birgalikda oddiy o'z istagi bilan ham o'quvchilar qatnashishlari mumkin. Ommaviy tadbirlarni repetitsiyalari davomida va uni o'tkazilish jarayonida ijrochilar bilan birga tinglovchilar ham bir xil bo'lmasada estetik kechinmalarni his etadilar.

O'qituvchi ommaviy tadbirlar bilan bog'lik faoliyatning xar xil turlarini bir-biri bilan bog'liq holda olib oborish rejalashtirishi va tashkiliy tayyorgarlik ishlarini olib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mashg'ulotlar sifatli va samarali bo'lishi uchun har bir tadbir uchun alohida reja va dasturga tayanishi zarur.

Manaviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt - saodat bo'lmaydi. Ma'naviy barkamollikka erishmay turib, komil inson darajasiga yetish mumkin emas.¹⁰

Nafaqat ko'xna tarix balki yangi tarix ham buning ko'plab misollarni beradi deya ta'kidlaydi. I. Karimov Ma'naviy yangilanish-bu avvalo o'zbek xalqining boy milliy ma'naviy merosini chuqur o'rganish, yosh avlodni ana shu qadriyatlar ruhida tarbiyalash, milliy mafkura, milliy tafakkurimizni ular ongiga singdirish muayyan tamoyillarga tayanib ish tutgandagina o'z samarasini beradi. Tarbiya nazariyasida erishilgan yutuqlarni umumlashtirilgan holda ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini belgilovchi asosiy tamoyillar sirasiga milliy - mafkuraviy

⁹ Yu.G'.Mahmudov va b "Milliy g'urur-ma'naviy komillik mezoni".T.: Dizayn-press, 2011 yil.327 bet.

¹⁰ Yu.G'.Mahmudov va b "Milliy g'urur-ma'naviy komillik mezoni".T.: Dizayn-press, 2011 yil.327 bet.

yuksaltirish, ta'lim va tarbiya birligi, xayotiylik, yaxlitlik, amaliylik, ommaviylik o'quvchilarni yosh, aqliy xususiyatlarini hisobga olish uzviylik, ma'naviy - ma'rifiy ishlar omillari ta'sirining muvofiqlashganligi kiradi.

Shunga ko'ra umumta'lim mакtablarida o'tkaziladigan madaniy - ommaviy tadbirlarning (ularning juda ko'pchiligi milliy bayramlar bilan bog'liqdir) maqsadi ham o'quvchi yoshlarda ma'naviy bilim, ma'naviy extiyoj, ma'naviy ko'nikma va e'tiqodni tarbiyalashga qaratilmog'i zarur. Bu esa o'z navbatida milliy ma'naviy tarbiyani estetik tarbiya bilan o'zaro uyg'unligini ta'minlaydi, tarbiyaviy ishlarni samaradorligini va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Har qanday bayram yoki atoqli sanalarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'quvchilar ishtirokida o'tkazish ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlagan holda tashkil etilishi zarur.

Umumta'lim mакtablarida o'quvchilar ishtirokida o'tkazilayotgan ma'naviy - ma'rifiy ishlar holatini o'rganish sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning boy tizimi mavjudligini ko'rsatadi. Bu tizimda (tanlovlар sport musobaqalari konsertlar, badiiy kechalar, uchrashuvlar, siyosiy tadbirlar) o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra milliylik xarakter kasb etuvchi bayramlar Mustaqillik bayrami, 1 – oktyabr o'qituvchil ar va murabbiylar kuni, 8 - dekabr konstitutsiya kuni, yangi yil bayrami, Navruz bayrami, 9 - may Xotira va qadrlash kuni, Xosil bayrami, Boysun bahori, "Alifbe" bayrami alohida o'rin tutadi.

Mazkur bayramlar umumxalq bayrami sifatida barcha tashkilot, muassasa, jamoat uyushmalarida keng nishonlanadi. Bu bayramlar mакtabda sinf rahbari, ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rindbosarining yillik tarbiyaviy ishlar rejalarida o'z aksini topadi.

Zamon talabi asosida o'quvchi - yoshlarni milliy to'y hamda milliy istiqlol mafkurasi ruxida ma'naviy axloqiy tarbiyalashda bayramlarda ijro etiladigan qo'shiq she'r, aytishuvlarning ahamiyati juda kattadir.¹¹

Qo'shiqlardagi yuksak axloqiylik, ma'naviy barkamollik, insoniy fazilatlarni ulug'lovchi, vatanni, oilasini tabiatni madx etuvchi g'oyalar yoshlarni madaniy - ma'rifiy dunyoqarashlarni takomillashtirishda ahamiyati beqiyosdir. O'quvchilarda

¹¹ Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari.- T.: Fan, 1994.- 133 b.

bayramga tayyorgarlik ko'rish jarayonida birinchi navbatda bayramlarning mohiyatini, o'ziga xos xususiyatini ma'no va mazmuniga hamda ularning yashash tarziga qanday tasir etishini singdirish muhimdir. Bunda o'quvchi yoshlarni bayram tadbirlari vositasida asl milliy qadriyatlarni anglashga, tushunishga va qadrlashga o'rganish asosiy maqsad hisoblanadi.

Bayram tadbirlari asosida tarbiyalamoq uchun inson ruhiyatidan kelib chiqadigan xulosalarga, ajdodlar tajribasiga tayanmoqlik lozim.¹²

Bayramlarda bayram qo'shiqlarining o'ziga xos ma'anviy - axloqiy tarbiya vositasi ekanligini xisobga olgan holda amaliy jihatdan aniq dastur va senariylar asosida tashkil etish maqsadga muvofiqlik. Maktabda nishonlanadigan bayram tadbirlari va qo'shiqlari yoshlarga xos jo'shqinlik, zavq - shavqqa jasoratga, tantanavorlikka, o'ziga xos ma'no va mazmunga egaligi bilan barcha ma'naviy - axloqiy, ruhiy ko'tarinkilik, bayramona kayfiyat baxsh etibgina qolmay ishtirokchi va tomoshabin bo'lган o'quvchi yoshlarni qadriyatlarimiz bilan yaqindan tanishtiradi. Bunday bayram tadbirlari insonni bag'ri kenglikga, dilovarlikga, sodiqlikga, odil va saxovatlilikka, sadoqatilikka, kechirimli, mard, jur'atli shaxs bo'lib tarbiyalanishlariga ta'sir etadi. Hozirgi kunda yoshlarni ma'naviy - axloqiy va estetik tarbiyalashda bayramlar va bayram qo'shiqlariga katta ahamiyat berish juda ham zarur.

Bayram tadbirlarini tashkil qilishda musiqa uning badiiy emotsiional ta'sirchanligini ta'minlashga hizmat qiluvchi vosita xisoblanadi. Chunki, bayramlarning mohiyati, hususiyati va maqsadini oshirib beradigan, tasirchanligini oshiradigan musiqa bo'lib, ularsiz tadbir xaqiqiy bayram shukuhini bera olmaydi. Maktabda o'tkaziladigan bayramlar yoshlarni ilm-fanni, qadriyatlarimizni faqat turli adabiyotlardan o'qib o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, buyuk merosimizni amalda ko'rib, uni tashkil etish va o'tkazishda ishtrok etib ongli idrok etishlariga yordam beradi. Bunda o'quvchilarni musiqa darslari, sinfdan tashqari to'garak ishlari va ayrim bayramlarni o'tkazishiga tayyorgarlik jarayonida sahna sirlaridan xabardor etib ham borish kerakdir. Bunda eng yaxshi usullardan biri bayram

¹² A.Rahmatullayev va b "Uzluksiz ta'lim tizimida innovasion texnologiya". Nasaf nashriyoti, 2013 yil. 42 bet.

tadbirini tashkil etish va qatnashish uchun o'quvchilar o'rtasida tanlov o'tkazish kerak bo'ladi. Tanlovda har bir ishtirokchining sahnada ifodali o'qiy olishiga, nutqning aniq ravon, talafuziga, musiqiy usullarda raqs tusha olishga, qo'shiq kuylash iqtidorini, e'tiborda tutish lozim bo'ladi.

O'quvchilar bilan bayramlardagi obrazlarni, buyuk shaxslar, siymolarni sahnada joylashtirish ayniqsa musiqa o'qituvchilaridan yuqori bilim, rejissyorlik salohiyati va sahna qonuniyatlaridan xabardorlikni talab qiladi.

Shunga erishish kerakki, o'quvchilar sahnada mahorat bilan milliy qiyofali ishonchli, ta'sirchan qilib namoyon etishlari va tomoshabinlarga yetkazib bera olishi zarur. Bu o'rinda tadbirga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishga musiqa o'qituvchilaridan tashqari tasviriy san'at, adabiyot o'qituvchisini, musiqaning turli janrlari va rejissyorlik san'atidan ma'lumotli mutaxassislarni, shuningdek raqs qo'yuvchi xoreograflardan iborat ijodiy guruhni jalb qilish ham eng muhim ish shakllaridandir.

Azaliy qadriyatlarimizning shakllanishi va istiqlol davrida bayramlarni yangicha mazmun, shakl kasb etishi hamda xalqimizning qadimiy an'analariga monand holda uyg'unlashuvi nihoyatda muhimdir. Shu bilan birga o'zbek kuy qo'shiqlari ham bayramlarni ta'sirchanligini oshirishda yordam beradi.

I.2. Bayram tadbirlari ishlarini tashkil qilish prinsiplari

Darhaqiqat, ma'naviy - ma'rifiy tarbiya printsiplari - bu ta'lim muassasalarida barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida tashkil etiladigan ma'rifiy tadbirlarning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkiliy shakllalriga, tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlariga qo'yiladigan asosiy talablarni ifodalaydigan qoidalardir.

Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo'lishiga bog'liq.¹³

Buning uchun esa bugungi va ertangi kun avlodlarini ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalamoq zarur.

¹³ N.N.Azizzxo'jayeva "Pedagogik texnologiya va Pedagogik mahorat". T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006 yil. 159 bet.

Ma’naviy - ma’rifiy ishlarning printsiplari o’qituvchi - tarbiyachilarga yo’l - yo’riq ko’rsatuvchi talablar, qoidalar yig’indisi hisoblanib, u barkamol insonni tarbiyalashning vazifalari bilan belgilanadi va umuminsoniy tarbiya to’grisidagi ta’limotga hamda ilmiy pedagogik ma’lumot erishgan yutuqlarga asoslanib, uning qonuniyatlarini aks ettiradi.

Shuning uchun ma’naviy - ma’rifiy tarbiya jarayonida bu printsiplarga rioya qilish uning samaradorligini oshiradi, sifat ko’rsatkichini rivojlantiradi.

Hozirgi zamon jahon va milliy pedagogika nazariyalariga asoslanib, ma’naviy - ma’rifiy tarbiya ishlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

- ma’naviy - ma’rifiy tarbiya ishlarining ijtimoiy yo’nalganlik printsipi;

- ixtiyoriylik, mustaqillik, o’yin va romantika printsipi;

- ishda ijodkorlik, tashabbuskorlik, yangilikka intilish nuqtai nazaridan yondashish prinsipi;

ma’naviy - ma’rifiy tarbiya ishlarining rejalligi va tadbirlarning o’quvchi — tarbiyalanuvchilar kuchiga mosligi prinsipi;

ma’naviy - ma’rifiy tarbiya ishlarining muntazamliligi, davomiyligi, uzviyligi va o’zaro ta’sirchanligi prinsipi;

ma’naviy - ma’rifiy tarbiya ishlarini tashkil etishda tarbiyalanuvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish prinsipi.

Inson yer yuzidagi mavjudotlardan,o’zining maqsadga yo’naltirilgan harakatlari bilan keskin farq qiladi.Maqсад esa insonni ma’rifiy faoliyatga yo’naltiradi.¹⁴

Endi mazkur ma’naviy - ma’rifiy ishlar printsiplarini tavsiflashga o’tamiz:

Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlarining ijtimoiy yo’nalganligi prinsipi.

Bu prinsip tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirishda ijtimoiy taraqqiyot, mamlakatning goyaviy — siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy va

¹⁴ B.Ziyomhammadov,M.Tojiev. “Pedagogik texnologiya-zamonaviy o’zbek milliy modeli”.T.:2009yil.103 bet.

ma'naviy - madaniy rivojidan kelib chiqqan holda, darsdan va sinfdan tashqari tashkil qilinadigan ishlar mazmunini, to'garak, klublar, birlashmalar faoliyatini mamlakat tarakkiyoti bilan bog'lanishi, shuningdek fan, texnika, madaniyat, san'at yutuqlariga asoslanishni nazarda tutadi.

Ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlariga ishtirok etishning ixtiyoriyligi prinsipi.

Bu prinsip ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan sinfdan tashqari ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlari fakul'tativlar.

To'garaklar, turli klublar va x.k. larga ishtirok etish o'quvchi talabaning qiziqishi, istak - xohishi, qobiliyatiga qarab tanlashning ixtiyoriy bo'lismeni ta'minlashga qaratilgan. Ixtiyorilik printsipi, o'quvchilar ixtiyorini inobatga olib, uni toliqtirmaslik va zo'riqtirmaslik uchun, ta'lim muassasalarida tashkil qilinadigan darsdan tashqari ishlarning ikkitadan ortiq bo'lmasligini inobatga olishni ham nazarda tutadi.

Bu prinsip talaba - o'quvchilarning qiziqishlari, tashabbuslari asosida ma'naviy - ma'rifiy ishlarni tashkil qilish lozimligini nazarda tutadi. Har qanday tadbir, avvalo o'quvchi - talabalarning mustaqilligiga asoslanishi, o'qituvchi - tarbiyachi ularni ruhlantirishi, faoliyatini rivojlantirishi lozim. Shunda o'quvchi - talabalarda tashabbuskorlik, qiziqishlar, ijodiy qobiliyat rivojlanadi. Har qanday tadbirni ular yuqori ko'tarinki ruhda qiziqish bilan, tashabbus bilan mustaqil ijro etishga o'rganadilar. Ularda o'z- o'zini boshqarish his - tuygu taraqqiy etadi.

Bu prinsipni asosan kichik va katta maktab o'quvchilariga qo'llash maqsadga muvofiq. Chunki kichik va o'rta maktab yoshi o'quvchilari asosan o'yin faoliyatiga ko'prok ehtiyoj sezadilar. Ammo shu o'rinda — bu ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'rifiy tarbiyaning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari, tashkiliy shakllariga, tarbiya jarayonining ishtirokchilarining o'zaro munosabatlariga qo'yiladigan asosiy talablarni ifodalaydigan qoidalardir.

Ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlarining prinsiplari o'qituvchi - tarbiyachilarga yo'l - yo'riq ko'rsatuvchi talablar, qoidalar hisoblanib barkamol

insonni tarbiyalashning vazifalari bilan belgilanadi va umuminsoniy tarbiya to'grisidagi ta'lilotga ilmiy pedagogik ta'lim erishgan yutuqlarga asoslanib, uning qonuniyatlarini aks ettiradi.¹⁵

Shuning uchun ma'naviy - ma'rifiy tarbiya jarayonida bu prinsiplarga rioya qilish uning samaradorligini oshiradi, sifat ko'rsatkichini oshiradi. Hozirgi zamon pedagogikasida ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlarning prinsiplari quyidagicha guruhashgan. Bular, ma'naviy - ma'rifiy toifalarning ijtimoiy yo'naliш kasb etish prinsipi, ixtiyorilik, mustakillilik, o'yin, romantika, ishda ijodkorlik, tashabbuskorlik, ratsionalizatorlik nuqtai nazaridan yondoshish, rejalilik, tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchilar kuchiga mosligi, muntazamliligi, davomiyligi, o'zaro ta'sirchanligi va tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish prinsiplaridir.

Ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlarining ijtimoiy yo'naliш kasb etish prinsipi.

Bu prinsip tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirishda ijtimoiy taraqqiyot va mamlakatning goyaviy - siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy, ma'naviy - madaniy rivojidan kelib chiqib, darsdan va sinfdan tashqari tashkil qilinadigan ishlar mazmuni, to'garak, klublar, birlashmalar faoliyatini qonuni asosida tashkil qilinib quyi guruhlardan aniqroq va osonrok tadbirlar, yuqori guruhda murakkabroqlarini o'tkazishni nazarda tutishi lozim.

Ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarning yana bir muhim prinsipi. Tadbirlar ishtirokchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishdir. Bu degani tadbirlarning vazifalari, mazmuni o'quvchi - yoshlariga yoshlariga mos bo'lib, ular sogligiga, dunyoqarashiga ma'naviy - axloqiy salohiyatiga aqliy zakovatiga salbiy ta'sir ko'rsatishdan yiroq bo'lishi lozim.

Ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlarining qayd etilgan prinsiplariga asoslansa, ularning yaxlitligi, o'zaro hamkorligi, bir-birini to'ldirili shiga e'tibor qaratilib ulardan samarali foydalanilsa umumiш o'rta maktab, kasb hunar kolejlari o'quvchilarning ta'limiy – tarbiyaviy rivojlanuvchanlik faoliyatları

¹⁵ Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 190 b.

maqsadli yo'lga qo'yilishi, barkamol insonning to'liq shaxs bo'lib shakllanishi kafolatlanadi.

Jamiyatni, ijtimoiy — siyosiy, iqtisodiy — madaniy rivojlantirishda umum ta'lim maktablarida olib boriladigan ma'naviy — ma'rifiy tarbiya ishlarini quyidagi yo'naliшlar bo'yicha mazmunini belgilash va rejorashtirish talabga muvofiq.

1.Tashkiliy-tarbiyaviy ishlar

II.Mafkuraviy (Goyaviy-siyosiy) tarbiya o'quvchilar ijtimoiy aktivligi va o'qishga munosabatini oshirish

III. Ilmiy - dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, bilish faolligini oshirish.

IV.Umuminsoniy, milliy axloqiy tarbiya va xulk madaniyatini tarbiyalash.

V.Go'zallik, nafosat va badiiy tarbiya

VI. Mehnatsevarlik va mehnat axliga muhabbat tarbiysi.

VII.Iqtisodiy tarbiya va tabiatni muhofaza qilish

VIII Yoshlarning xuquqiy bilimdonligini oshirish

IX Sogolomlashtirish va o'quvchilar jismoniy barkamolligi xususida gamxo'rlik qilish

X. O'qituvchi - tarbiyachilar va muktabning ishchi - xodimlari bilan olib

boriladigan ma'naviy - ma'rifiy mafkuraviy ishlar

XI.Ota - onalar mahalla bilan ishlash

XII. Bolalar, yoshlar uyushmasi va muktabning boshqa jamoa tashkilotlari bilan olib boriladigan ma'naviy - ma'rifiy ishlar.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek maktablarda barcha fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning ma'naviy - ma'rifiy madaniyatini oshirishga va darsdan tashqari olib boriladigan ishlar qaratilmogi lozim. Bunda har bir o'quvchi «ma'naviyat», «madaniyat» tushunchalarining tub ma'nosini anglab olsinlar, milliy ma'naviyatimiz sarchashmalari, manbalaridan xabardor

bo'lsinlar, bu manbalardan mustaqil erkin ilm olish, o'rganish malakariga ega bo'lsinlar.

Ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlarining yana bir shakli ommaviy tadbirlardir. Bunga ertaliklar, tematik kechalar, disputlar, savol - javob kechalari, konferentsialar, festivallar «Umid nihollari», «Barkamol avlod» sport o'yinlari, ekskursiyalar muzey ishlari va x.k.lar kiradi. «Ertaklar dunyosiga sayohat», «Navoiyxonlik», «Qizlar davrasi», «Balli yigitlar», «O'tmish avlodlar izidan» mavzularida ertaliklar, tematik kechalar, o'qishlar va x.k. albatta o'quvchi yoshlar savodxonligini oshiradi, aql - zakovatini charxlaydi, ma'naviy salohiyatini oshiradi. Ayniqsa mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda o'tkazilayotgan maktab o'quvchilari uchun «Umid nihollari», «Barkamol avlod» sport o'yinlari ma'naviy - ma'rifiy tarbiya katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib, ta'lim muassasalarida tashkil qilib o'tkaziladigan ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlari o'quvchi - yoshlarni bilimga chanqoqliklarini oshirib, aqliy salohiyat va zakovatlarini rivojlantirish bilan birga, ularni ma'naviy barkamol bo'lib tarbiyalanishlar uchun zamin yaratadi.

V. bayram tadbirlarini olib borish va ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlarini amalga oshirishda o'quv muassasasi rahbarining ish mazmuni:

Ma'lumki, milliy mustaqil O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning ma'naviy - axloqiy negizlari:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik:
xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish:
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish:
- «vatanparvarlik»dan iborat bo'lishi lozimligi I.A.Karimov tomonidan belgilab berilgan, buning uchun «Kadrlar ayyorlash milliy dasturi»da «Yosh avlodni ma'naviy - axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy - tarixiy an'analariga urf - odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakli va

vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustivorligi ta'minlanadi.

Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirilib boriladi».

O'zbekiston mustaqilligi prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishta qodir shaxsan shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalari ota-onalar, oila, mahalla qo'mitalari, fondlar bilan o'zaro puxta hamkorlik qiladilar kabi vazifalar ta'lim muassasalarining bosh masalasi bo'lib qolmoqda, bu ishlarni rejalashtirish, amalga oshirishda pedagogik rahbarlik qilish ta'lim muassasalarining rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shunga ko'ra ta'lim muassasasi rahbariyati (direktor, o'rindbosari, jamoat tashkilotlari raxbariyati) o'quv yiliga ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlarini rejaggashtiradi, O'z rejasini tuzishda «Ta'lim to'grisida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Respublika Oliy Majlisi sessiyasi materiallari, nutqlari, hukumatimiz qarorlari, ta'lim boshqaruvi organlari me'yoriy xujjatlari, talablariga suyanadi.

Yilning ulut bayramlari «Mustakillik kuni», «Qomusimiz kuni», «Vatan himoyachilari kuni», «Ustozlar va murabbiylar kuni», «Xotin - qizlar bayrami», «Navro'z bayrami», «Xotira va kadrlash kuni» kabi tadbirlari, shularga o'xshash ko'plab ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarning Nizomini ishlab chiqish va Nizom asosida ish yuritish maqsadga muvofiq.

Nizom asosida har bir tadbirni o'tkazish dasturi yoki ssenariysi ishlab chiqiladi. Ushbu dastur va ssenariy jamoa muhokamasiga qo'yilib, direktor oldi yigilishida tasdiqlab olinadi. Bunda tadbir natijasini, ya'ni g'oliblarini taqdirlash katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim muassasasida o'tkaziladigan har qanday tadbirning Nizomi ishlab chiqilib, faoliyat Nizom asosida o'tkazilsa pedagog jihatdan to'g'ri bo'ladi.

Shunday qilib umumiy o'rta maktablarda tashkil etiladigan ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlari rejalashtirish, reja tuzishda normativ xujjatlarga asoslanish, har bir tadbir uchun Nizom ishlab chiqish va Nizom asosida uni o'tkazish dasturini ishlab

chiqish ta'lif muassasasi rahbarining ish mazmunini tashkil etadi. Shundagina u maqsadli, pedagogik jihatdan to'g'ri bo'ladi.

Shunday qilib ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlari keng qamrovlidir. Zero, ma'naviyat va ma'rifikat - Oliy qadriyat. U xalqmizning urf - odatlarini, allomalarining sermazmun ta'limotlarini, tarixiy milliy qahramonlarimizning hayot yo'lini, istiqlol, erk uchun kurashganlar, zabun bo'lganlarning mashaqqatli turmush sahifalarida o'zida aks ettiradi. Shuning uchun ham u oliy qadriyat. U o'z yo'nalishlariga ko'ra komil insonni tarbiyalash kabi buyuk maqsadni amalga oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirishning mavjud holati haqida pedagoglarning fikrini aniqlash maqsadida anketa so'rovnomaga o'tkazildi.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirishda asosiy vazifa nimada deb bilasiz?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirish ta'lif-tarbiya jarayonida qanday ahamiyatga ega?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirishda qanday usullardan foydalanilsa ko'proq samara beradi?
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirish qanday prinsiplarga amal qilsa maqlub deb bilasiz?
5. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirish qanday xususiyatlarga ega?
6. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirishda interaktiv metodlardan foydalanish qanday ahamiyat kasb etadi?
7. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalarning qaysi biridan ko'proq foydalanish samarali?
8. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirishda o'qituvchining faoliyati nimada deb bilasiz?

9. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarida o'quvchilar qanday taqsimlanadi?

10. Sizning faoliyatizingda olib borilgan bayram tadbirlarini qaysi biri ko'proq samara berdi? Sababi nimada?

Bob yuzasidan xulosa

Ushbu bobda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirishning pedagogik muammolari yoritib berildi. Turli adabiyotlar asosida misollar keltirildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirishda uchraydigan muammolar ko'rsatilgan. Ushbu muammolar pedagogik jihatdan asoslangan. Ushbu jarayonda mutafakkirlar fikridan foydalanilgan.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilar ishtirokida o'tkazilayotgan ma'naviy - ma'rifiy ishlar holatini o'rganish sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning boy tizimi mavjudligini ko'rsatadi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirishda uning prinsiplari keltirildi. Ushbu keltirilgan prinsiplarning amaldagi ahamiyati asoslandi.

Demak, bayram tadbirlarini samarali o'tkazish uchun ham uning prinsiplariga amal qilinsa maqsadga muvofiq ekanligi keltirilgan. Ya'ni bayram tadbirlarini tashkil qilish prinsiplariga amal qilish ahamiyati ko'rsatilgan. Ushbu bobda ana shu jihatlar keltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ta'lif muassasasida o'tkaziladigan har qanday tadbirning Nizomi ishlab chiqilib, faoliyat Nizom asosida o'tkazilsa pedagogik jihatdan to'g'ri bo'lishi asoslangan.

Tadbirlar ishtirokchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish asoslab berilgan. Bu degani tadbirlarning vazifalari, mazmuni o'quvchilarning yoshlariga mos bo'lib, ular sog'ligiga, dunyoqarashiga ma'naviy - axloqiy salohiyatiga aqliy zakovatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozimligi hususida asosiy fikrlar keltirilgan.

Ushbu bobda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini takomillashtirishda avvalo uni tashkil qilish prinsiplariga qat'iy amal qilish muhimligi asoslangan.

II BOB. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI BILAN O'TKAZILADIGAN BAYRAM TADBIRLARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

II.1. Darsdan tashqari vaqtarda ta'lim-tarbiya muassasalarida bayramlarni ommaviy tadbirlarni o'tkazish usullari

Takomillashtirilgan va maqsadga muvofiq holda tashkil etilgan bayram tadbirlari o'zining muhim xususiyatlari ega.Ushbu xususiyatlar bayram tadbirlarini samarali olib borilishida o'z hissasini qo'sha oladi.

Quyida biz bayramlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning marosimlardan farqini ko'rsatib o'tamiz:

1. Har qanday bayram ijtimoiy xodisa sifatida muayyan vazifalarni bajaradi Bilish, tarbiyaviy, kommunikativ, madaniy, emotsiyal-estetik, uyushtiruvchanlik.
2. Bayramlar muayyan marosimlarni bajarish va unga amal qilish natijasida vujudga kelgan.

Marosimlar ko'pincha inson hayoti bilan bog'liq bo'lган muhim voqealarga bag'ishlab tashkil qilinsa, bayramlar etnik guruhlar, xalqlar hayoti va tarixi bilan, inson hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan tabiat hodisalariga bog'langan holda tashkil etiladi.

3. Marosimlar asosida diniy tasavvurlarga bog'liq bo'lган xodisalar yotsa, bayramlar asosida aniq real hayot bilan bog'liq bo'lган hodisalar yotadi.
4. Marosim o'z tarkibiga har qanday janrga xos tekstni qamrab olmaydi, bayramlar o'z tarkibiga har qanday janrni qamrab oladi.
5. Bayramlar belgilangan kunda o'tkazilsa, marosimlar har doim har qanday mavsumda o'tkaziladi.
6. Bayramlar vaqtning tarixan to'g'ri va oldinlama bir xildagi harakatini buzib, unga doimiy takroriylik bag'ishlaydi.

7. Bayram vaqtning bir xildagi harakatini buzib, unga emotsional fon beradi.
 8. Marosimlar esa vaqt oqimidagi zerikarli nuqtalarga emotsional fon bersa ham vaqtning tarixiy oqimiga takroriylik bag'ishlay olmaydi. Va o'zining chegaralangan doirasida o'tkaziladi.
 9. Marosimlar 3 ta vazifani bajaradi. Psixologik, estetik, uyushtiruvchanlik. Bayramlar esa oltita vazifani bajaradi: bilish- axborot berish, tarbiyaviy, kommunikativ, uyushtiruvchanlik, madaniy, emotsiyal- estetik.
 10. Marosimlar kishilarning ma'lum tor doirasini qamrab olsa, bayramlar kishilarning juda keng qatlamiga mo'ljallanadi.
 11. Marosimlar asosida harakat va so'z komponenti mavjud bo'ladi, bayramlar tarkibida barcha komponentlar –harakat, so'z, musiqa, raqs, o'yin, va b...
 12. Marosimlarda barcha harakat irim- sirim, rasm -rusum, udumlarga katta e'tibor beriladi.
- Bayramlarda esa barcha harakatlar kishilarning erkin va ixtiyoriy tarzda bajariladi.
13. Bayramlarda folkloarning ko'pgina janrlari sentizlashib ketadi, Bayramlarda dasturga kiritilgan barcha janrlar maxsus tartibda tomosha shakliga keltiriladi.
 14. Bayramlar kishilar hayotining faqat xursandchilik kunlarida nishonlansa, marosimlar ham xursandchilik, ham qayg'uli kunlarida nishonlanadi.

Bayramlar o'z turiga qarab ma'lum ma'noli va mazmunga ega bo'ladi. Bayramlarni faqat shodu-xurramlik deb tushunmaslik kerak. Unda har bir xalqning ulkan tarixiy muvaffaqiyatlari, g'alabalari, milliy qadriyatları nishonlanadi. Ular o'ziga xos milliy. zamonaviy, tarixiy voqealarni o'zida mujassam etish bilan o'z o'rniда inson ruhiyati ongi, shuuriga, ma'naviyati va madniyati shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bayramlarga bag'ishlangan musiqalar, qo'shiqlar ishtirokchilarga, ularning ma'naviyatiga va estetik tarbiyasiga ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Bunday tadbirdarga qatnashish pirovardida yoshlarda vatanni sevish ardoqlash, unga munosib farzand bo'lish g'ururini o'stiradi bayramga bag'ishlangan har bir musiqali chiqishlar, nomerlar ularni ijro etuvchilar bilan birga ishtirokchilar va tomashabinlarni xam yaxshi kayfiyat va zavqlanish bilan birga

o'ylashga, fikr-mulohaza yuritishga o'z-o'zini savolga tutishga, ularga javob izlashga undaydi. Bular barchasi uning xayotida o'ziga xos o'zgarish yasash tabiiy. Bayram tadbirlari, ularning turlari, ularga bag'ishlab yaratilayotgan yakka hamda ommaviy raqs, qushiqlar milliy bayramlarimizning mazmun va ma'nosini, mohiyati va ta'sirini boyitish bilan birga shaxsni o'sib kelayotgan yosh avlodni badiiy kamol toptirishda muhim manba hamdir.

Shaxs sog'lom va har tomonlama barkamol shakllanishi uchun unda o'qishga intilish hissini takomillashtirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Ular ongida kasb - - hunar va mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yuksak ma'naviy-a hloqiy fazilatlarini tarbiyalash bilan o'z vatani va halqiga nisbatan sadoqatni shakllantirish, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo'lish tuyg'usini, huquqiy ongini tarbiyalash lozim. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da madaniy - estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda o'quv bilim yurtidan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ta'kidlangan hamda ta'lim sifatini yaxshilash, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan.

Ushbu «Darsdan tashqari ta'limni tashkil qilish davlat talablari» o'quvchilarning bo'sh vaqtini tarbiyaviy ta'lim jihatdan samaradorli tashkil etishga qaratilgan bo'lib, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va milliy dastur g'oyalari asosida ishlab chiqilgan.

Darsdan tashqari ta'limni urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, Respublika hududlari talablari asosida tashkil etib, uning tarmog'ini kengaytirib, hozirgi zamon talablari darajasida isloh, qilish kun tartibida turgan dolzarb masaladir. Hozirgi paytda yangi pedagogik va axborot texnologiyasi qonuniyatlarini asosida pedagog olimlarimiz ta'lim muassasalaridan tashqari ta'limni tashkil etishning turli shakl va metodlarini ishlab chiqish yo'nalishida tegishli tadqiqotlarni olib bormoqdalar. Shuning bilan birga bu, bir joyda to'xtab turuvchi jarayon emas. Ushbu «Talablar» barcha o'quv maskanlaridan tashqari ta'lim muassasalari o'quv - tarbiyaviy ishini rejalahtirishda dastur va uslubiy materiallar, metodik qo'llanmalar, o'quv

adabiyotlarini tayyorlashda muhim hujjat bo'lib xizmat qiladi.¹⁶

Darsdan tashqari vaqtligi bayram tadbirlarini o'tkazish uchun tarbiyaviy ishlarning shakllari.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalari oldida turgan muhim tarbiyaviy faoliyati bu yoshlarga estetik, ekologik, ahloqiy, huquqiy, iqtisodiy va shunga o' hshash boshqa turdag'i tarbiyaviy ishlarni o'rgatishdan iboratdir. Tarbiyaning ushbu turlarini yosh avlodga singdirish uchun avvalo muassasada o'tkaziladigan o'quvchilar his – tuyg'usini shakllantirishga asoslangan turli tadbirlarda, tugaraklar faoliyatida milliy madaniy-tarixiy an'analarga, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarida rejalshtirilayotgan har bir bayram tadbiri mazmunida Vatanga muhabbat va komil inson tarbiyasi aks etishi lozim. O'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini tarbiyalashda yurtimiz madaniyati tari xi, muayyan davrlardagi mavqeい, buyuk mutafakkirlarimizning jahon fan va madaniyati sohasidagi o'rni, mamlakatimizning yorqin istiqboliga ishonch to'g'risida ma'lumot beriladi. Vatanni sevish, uning istiqboli haqida qayg'urish iymone'tiqod ramzi ekanligi o'qtiriladi. Shu nuqtai nazardan asosiy maqsad - komil insonni tarbiyalashni amalga oshiradi.

Ta'lim – tarbiya muassasalarida bayramlarni, ommaviy tadbirlarni namunali o'tkazish.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yurtmizda ko'plab bayramlar nishonlana boshlandi. Ular o'z mazmunicha xalqimizning azaliy an'analarini, urf – odatlarini va orzu umidlarini olgan bo'lib, ommaviy tarzda muntazam nishonlanib kelyapti. Albatta, bu bayramlar kishilarga zavq-shavq bag'ishlash barobarida, yoshlarda vatanparvarlik, an'analarimizga sadoqat, urf – odatlarimizga hurmat hissini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu bayram tadbirlari o'quvchilar qalbida iymon – e'tiqod hissini munavvar etib, ona – Vatan, xalqiga mehr muhabbat uyg'otish zarur.

¹⁶A.B.Ismoilova "Darsdan tashqari ta'lim –tarbiya jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari" nomzodlik dessertasiyasi. T.: 2004yil.

O'tkazilayotgan bayram tadbirining mazmuniga qarab O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi, Konstituttsiyasi, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, Mutafakkir olimlarning ibratli so'zlaridan namunalar keltirish mumkin va hakozolar.

Shuningdek, suhbat, savol-javob, bahs-munozara, hikoya shakllarida sahnalashtirilgan lavhalar yordamida tashkil etilsa, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunday bayram tadbirlariga eng asosiyalaridan misol tariqasida aytib o'tishimiz mukin bo'lganlari "Mustaqillik – buyuk ne'mat", "O'qituvchilar va murabbiylar kuni", "9 may – Xotira va Qadrlash kuni", "Navro'z – gul bayrami" kabilardir.

Ta'lim muassasalarida "1-oktabr—O'qituvchilar va murabbiylar kuni" bayramini o'tkazish o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda xalqimizning ustoz murabbiyya bo'lgan munosabatlarining eng yaxshi namunalari misolida o'quvchi yoshlari, umuman insonlar dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Bayram tantanalariga ota-onalar, mahalla faollari, xalq ta'limi xodimlari, yozuvchi, shoirlar, san'at ahli, homiy tashkilotlar, faxriy o'qituvchilar, "Umid", "Kamolot", "Ulug'bek", "Mahalla" "Nuroniy", "Ustoz" "Oltin meros" kabi jamg'armalar, ommaviy axborot vositalari vakillarini jalb etish kerak.

Bayram doirasida tarbiyaviy soat, seminar-adabiyot, adabiy-badiiy va ilmiy kechalar, uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazilishi mumkin.

Bayram tantanalaridan 1-oktabr ustoz murabbiylar kuni bayramini nishonlash quyidagi mavzularda o'tkazilishi mumkin. "O'qituvchi—ulug' nom, u Mangu jaranglaydi", "Ustoz—otangdek ulug'", "Ustoz va murabbiylar, sizlarni sharaflaymiz", "Men sevgan ustoz", "Agar hayot bo'ston bo'lsa, bog'bon muallim", "Ustozlar kuni — umumxalq bayramidir" kabi mavzular.

Shuningdek, yosh musavvirlar, yosh hunarmandlar yosh raqqosalari, yosh chevarlar ko'rik-tanlovlari, yosh polvonlar, yosh sportchilar, o'tkir zehnlilar, topqirlar musobaqalarini, she'rxonlik va mushoiralarini ham o'tkazish mumkin.

Ustoz va murabbiylar bayramini nishonlashda o'tganlar ruhini shod etishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

"O'qituvchilar va murabbiylar kuni" bayramini quydagicha reja asosida o'tkazish mumkin:

- 1 oktyabr — "O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayrami — dam olish kuni ekanligi;
- o'qituvchi—ulug' zot ekanligi haqida;
- ustoz—otangdan ulug'ligi;
- o'qituvchi va murabbiylar mehnatining qadr-qiymati haqida;
- buyuk ustozi haqida O'qituvchilar sulolasiga haqida;
- ustozi ruhini shod etish;
- o'qituvchilarni munosib taqdirlash, sovg'alar ulashish;
- rivoyat, hikoyalar, she'r va kuy-qo'shiqlar ijro etish;
- sahna lavhalaridan, sport o'yinlaridan namoyish etish;
- san'atkorlar chiqishi;
- sayl-sayohatga borish;
- nafaqaxo'r, faxriy o'qituvchilar holidan xabar olish;
- ko'rgazma tashkil etish.

Bayramni ikki bosqichli tadbir asosida o'tkazish ham mumkin.

Birinchisi — ma'rifiy, ma'naviy tadbirlar bo'lsa, ikkinchisi, ko'ngil ochar, estetik zavq-shavq olishga bag'ishlangan o'yin-kulgi, tomoshali tadbirlardir.

Sayohat va sayllarda, muzey va muqaddas qadamjoylarga, "Xotira va Qadrlash" maydonlariga borish.

O'quv yurtlarida "O'qituvchi va murabbiylar" bayrami teatrlashtirilgan reja asosida olib borilishi bayramning estetik tarbiyaviy qimmatini yanada oshiradi. Buning uchun, o'quv yurtlarining havaskorlik drama teatri a'zolari, musiqa va cholq'u asboblari to'garaklarining ishtiroychilari bilan teatrlashtirilgan badiiy qismlar tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Toshkent, Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Shaxrisabz, Termiz, Xiva shaharlariga o'qituvchilar sayohatini uyushtirish. Bu ishlarda xalq ta'limi bo'limi,

hokimyat, mahalla, homiy tashkilotlar, san'at va adabiyot ahli hamkorlikda faollik ko'rsatishlari lozim.

—"O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayramini o'tkazish uchun, avvalo, sahna mavzuga mos qilib, did bilan bezatilishi — o'qituvchi ustoz haqida Hadisu Sharif, Qur'oni Karim, Yusuf Xos Xojib, A.Jomiy, A.Navoiy, A.Avloniy, Usmon Nosir, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori hamda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov so'zlaridan namunalar bitilib, shior qilib osib qo'yilishi;

—Davlat Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi o'rniga tug'ri joylashtirilishi;

—"Qur'oni Karim", "Hadisu Sharif", "Qutadg'u bilig", "Qobusnama", "Mahbub ulqulub", "Muhokamatul lug'atayn", "Odobnama", "Turkiy guliston yohud axloq", "Alifbe", "Ustoz-muallim", "Odob saboqlari" va boshqa qadimiy hamda zamonaviy darslik va qo'llanmalardan namunalar qo'yilishi;

—fidoyi o'qituvchilar suratlari, eng yaxshi dars va darsdan tashqari ma'naviy tarbiyaviy ishlari bayonidan lavhalar, shuningdek, devoriy gazetalarning bayram sonlari ko'rgazma sifatida namoyish etilishi;

—O'zbekistonda "Davlat tili", "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "O'qituvchilar va murabbiylar kuni", "Davlat Mustaqilligi to'g'risida"gi Davlat Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o'z aksini topishi;

—bayramga mahalla oqsoqollari, faxriy o'qituvchilar-murabbiylar, xalq ta'limi, tuman, shahar hokimyati, xayriya jamg'armalari, homiy tashkilotlar va matbuot xodimlari vakillari, yozuvchilar, san'atkorlar taklif etilishi;

—ota-onalar, a'luchi o'quvchilar ham ishtirok etishlari;

—bayram zarur texnik va musiqiy asbob-uskunalari, boshlovchi, badiiy havaskorlar bilan ta'minlanishi, azaliy o'zbekona udumga binoan shodiyona karnay-surnay sadolari bilan boshlanishi lozim.

Quyida bayram tantanalarini o'tadigan joyni bezatishda foydalanish uchun buyuk allomalarning ustoz va murabbiylar haqidagi fikr va mulohazalaridan namunalarni ilova qilamiz:

1. Ilm qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lur,

Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lur.

(Yusuf Xos Hojib)

2. Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz gajn ila.

(A. Navoiy)

3. Jahonda bo'lmasa muallim agar
Hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar.

(A. Jomiy)

4. Ustoz, muallimsiz qolganda zamon,
Nodonlikdan bulurdi qora jahon.

(A. Jomiy)

5. Ustozlar—aziz yurtning eng aziz, eng ulug' va mo'tabar kishilaridandir.

(I.A. Karimov)

6. Hayot yo'lida birinchi masala — maktab masalasidir.

(Abdurauf Fitrat)

7. Ustoz yo'li porloqdir, ustoz yo'li porloqdir,
Ustoz ko'ngli xazina, sahovatga to'likdir.

(P. Mo'min)

Respublikamiz Birinchi Prezidentining “9 may – Xotira va Qadrlash kuni” deb e'lon qilish haqidagi Farmoni zaminida ushbu kunlarimiz nafasi barq urib turibdi. Xotira, qadrlash bu kishi qalbi uyg'oqligining, o'sha qalb toza va pokligining timsolidir.

Hayot bor ekan, demak tug'ilish bor, vafot etish bor. O'tganlarning xotirasini abadiylashtirish, ularning chirog'ini doimo yoqib turish nafaqat o'sha oramizda yo'q kimsalarning izzatini joyiga qo'yishni, balki kishining o'z – o'ziga bo'lgan qadr – qimmatini ham anglatadi.

Ushbu bayramni umumxalq bayrami sifatida nishonlash bu istiqlol hadya etgan in'omlardan biri ekanligini va bu kunning mazmunli, ko'tarinkи ruhda o'tkazilishiga erishmoq lozim.

Shuningdek, 9 may «Xotira va Qadrlash kuni” ni umumxalq bayramini o’tkazishda quydagilarga e’tibor qaratish tavsiya etiladi:

- “Xotira va Qadrlash kuni” umumxalq bayramini O’tkazuvchi maxsus komissiya tuzish, tadbirlar ishlab chiqish;
- “Xotira – qalb chirog’i”, “Inson buyuk zot, uni qadrlash oliv hikmat” kabi mazularda maxsus darslar, turli – tuman kechalar, davra suhbatlari, savol – javob, bahslar va tarbiyaviy soatlar o’tkazish;
- «Osmonimiz musaffo, yerimiz tinch bo’lsin”, “Yurtimiz husni jamoliga ko’z tegmasin”, “Toshkent – tinchlik shahri”, “O’tganlar xotirasi, tiriklar farovonligidir”, “Xotira va Qadrlash - burchimiz” kabi mavzularda she’rxonlik tanlovini o’tkazish;
- Ikkinci jahon urushi qatnashchilari bilan uchrashuv o’tkazish, ularning xonodonlariga borish, ularni tabriklash, ularga ma’naviy va amaliy yordam berish;
- “Xotira va Qadrlash” kuniga bag’ishlab adabiyotlar ko’rgazmasini tashkil etish.

Shuni ta’kidlash lozimki, tadbirlar o’quvchilarning bilim ko’nikma va malakalarga qarab ijodkorlik bilan o’tkazish tavsiya etiladi.

“Xotira va Qadrlash kuni”da nafaqat ikinchi jahon urushi qatnashchilari balki qatog’on yillarida nohaq ayblangan, qamoqxonalarda hamda mustabid tuzum davridagi afg’on urushida halok bo’lganlarni yod etish maqsadga muvofiqdir.

Komil insonlar jamiyatning tirik vijdonlari.Ya’ni ular insonlarning eng mukammali, eng oqili va donosi.¹⁷

Mamlakatimiz kelajagi bo’lmish yoshlarni ana shunday barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta’lim-tarbiyaning uzluksizligini ta’minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir. Shuningdek, boshlang’ich maktablarda tashkil etiladigan darsdan va sinfdan tashqari mashg’ulotlarga e’tiborni kuchaytirish

¹⁷ Yu.G’.Mahmudov va b “Milliy g’urur-ma’naviy komilllik mezoni”.T.: Dizayn-press, 2011 yil.327 bet.

bilan ham ta'lif va tarbiya jarayonining uzluksizligiga salmoqli hissa qo'shib boriladi. Darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi faqat bolalarni band qilish emas, balki ancha murakkab, ya'ni ularning darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizga nisbatan qiziqishini uyg'otish, qolaversa, ularning hayotini zavq va shavqqa to'ldirishdir. Xuddi dars jarayonida bo'lgani kabi tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda ham sinf o'qituvchisining vazifasi mas'uliyatli va ahamiyatlidir. Bu mas'uliyat ulardan doimiy ravishta o'z ustida ishlashni, ijodiy mehnatni talab qiladi.

Bayram tadbirlarini uyushtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilari she'r, qo'shiq, o'yinlar bilan faol ishtirok etadilar. Bu esa kechalarining to'laqonli, faol, qaynoq tashkil etilishini ta'minlaydi. Maktablarda turli bayram tadbirlarini tashkil etishda o'qituvchi ishtirokchi bo'lishi shart emas, ammo tayyorlash davrida maslahatchi, rahbar, kuzatuvchi bo'lishi tabiiydir.¹⁸

Bayram tadbirlari unutilmas sanalarga bag'ishlab tashkil etilishi mumkin. Turli mehmonlar taklif etilishi, kichik yoshdagi o'quvchilar bag'ishlov o'qishlari, sovg'alar berishlari va qabul qilishlari ham mumkin.

Bu borada bayram tadbiriga boshlovchilikni yuqori sinf o'quvchilaridan ham taklif qilish mumkin. Bayram tadbiri bir necha bosqichda olib boriladi.

1-bosqich - tayyorgarlik davrida maktabdagi tadbirlar zali tantanali ravishta bezatiladi va o'tkazishga tayyorlanadi. Zalning markaziy devoriga rasmlar ilib qo'yiladi. Shuningdek, zalni ma'rifiy fikrlari hikmatli so'zlar, ilm egallashga doir maqollar bilan ham bezash mumkin. Kechani o'tkazish 1,5 soatga mo'ljallanadi.

Bayram tadbirini muktab direktori yoki ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari ochib beradi. So'ng kechani olib borish uchun boshlovchiga so'zni beradi.

Shundan so'ng zalda milliy musiqa navolari yangraydi va zalga rollardagi o'quvchilar kirib kelishadi, o'quvchilar ularga gullar taqdim etishadi.

1. Bayram tadbiri quyidagi reja asosida olib boriladi:

1.Kirish so'zi.

¹⁸ Oripova N.va b Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi.Qarshi" Nasaf", 2013yil..

2. Bayram tadbiri nima munosabat bilan o'tkazilayotganligi.

Ushbu tadbirlarni o'tkazishda turli o'quv-uslubiy ashyolar: jurnallar, kitoblar, darsliklar, uslubiy tavsiyanoma, plakatlar, o'qitishning texnik vositalari, gazetalar, tarqatma va ko'rgazmali materiallar va boshqalar lozim bo'ladi. O'tkazilayotgan tadbirlar muktab o'quv jarayoniga, fanlar sohasiga, mavzular mazmuniga to'liq bo'ysundirilishi lozim. Bayram tadbirlarining ssnariylari loyihalari puxta ishlab chiqilmog'i kerak. Bayram tadbirlarni o'tkazishda har bir qatnashchi-ijrochi o'quvchilarining yosh, ruhiy, jismoniy xususiyatlari, muktabning mahalliy xususiyatlari hisobga olinmog'i lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilgan bayram tadbirlarning asosiy xususiyati- o'quvchi kundalik hayotining namoyon bo'lishidir. O'quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita ishtirok etadi, turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarни tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa bular orqali ma'naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda o'quvchilarining milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini o'stirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi. Ularning har biri o'ziga xos belgilarni, bir-biridan farq qiluvchi shakllarni, vositalarni, ijodiy, mehnatni talab qiladi. Bayram tadbirlarni tarbiyaviy ishlar o'qituvchilarining yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilar hayoti bilan ya'ni ularning muktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan kunlaridan boshlanadi. Mustaqillik bayrami, 2-sentabr, Kuz bayrami, Konstitutsiya kuni, Alifbo bayramlari, Yangi yil, Harbiylar kuni, mashhur allomalarining tug'ilgan kunlari, 8-mart, Navro'z bayrami, gullar bayrami, qushlar bayrami kabilari. Mana shunday tadbirlar bevosita o'quvchilarda vatanga e'tiqodni tarbiyalash ishlari bilan bog'liq holda olib boriladi. Bu tadbirlarga material tanlashda eng qimmatli manba bo'lib milliy qadriyatlar namunalari hisoblanadi.

O'qituvchi Bayram tadbirlarni uyushtirishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilish lozim:

- aniq maqsad va reja asosida uyushtirilishi;
- o‘quvchining yoshi, ruhiy holatiga mos bo‘lishi;
- darsda olgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi;
- tadbir orqali boshlangich sinf o‘quvchilarida jamoatchilik, uyushqoqlik, o‘zaro yordam kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanib borilishi darkor.

Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari bayram tadbirlarini quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tadbirni rejaliashtirish;
2. Tadbir yuzasidan o‘quvchilarga tushuncha berish;
3. Tadbirni tashkil qilish jarayonida sinf o‘quvchilarining barchalarini ishtirok etishini ta’minlash;
4. O‘quvchilarning imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda ishlarni taqsimlash;
5. Tadbirni amalga oshirish;
6. Tadbir natijalarini tahlil qilish va baholash.

Bosqichlarning har biri o‘qituvchi tomonidan oldindan chuqur o‘rganilgan bo‘lishi lozim.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun yordam beradigan quyidagi metodik tavsiyalarni bayon etishni lozim topdik:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinfdan tashqari bayram tadbirlariga rahbarlik qilishda, avvalo milliy qadriyatlarga, ularning ahamiyatiga, ijtimoiy xarakteriga e’tibor berish kerak (masalan, ertak va maqollar vositasida; tarixiy mavzular yoki milliy bayramlar: “Navro‘z”, “Mustaqillik kuni”, “Bilimlar kuni” va shu kabilar);
2. Yaxshi ishtirok etgan o‘quvchilarni, sinfni maktab jamoasi oldida moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish;
3. Darsdan tashqari tadbirlar orqali o‘quvchi shaxsidagi axloqiy sifatlarni rivojlantirish yo‘llarini izlash;
4. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga rahbarlik qilishda milliy qadriyatlar ta’siri vositasida ba’zi o‘quvchilarda mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf qilib borish;

5. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bunday tadbirlarda zo’r ishtiyoy bilan qatnashadilar. Ba’zan hamma o‘quvchilar ham birdek talabga javob bera olmaydilar, shu sababdan ularning ishtirokiga asta-sekinlik bilan erishish.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi eng avvalo, tashkil qilinadigan tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini chuqur o‘rganishi, uning natijalariga jiddiy e’tibor berishi va bu bilan o‘quvchi shaxsiga ijobiy ta’sir etishga intilmog‘i, vatanga e’tiqod, milliy g‘urur, vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo’llarini izlamog‘i lozim.

Milliy qadriyatlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanga e’tiqod ruhida tarbiyalash jarayonini yanada takomillashtirish, o‘quvchilarni milliy qadriyatlar bilan chuqurroq tanishtirish, ularning darsda olgan bilimlarini amalda isbotlash maqsadida turli ertaliklar, kechalar, bellashuvlar o‘tkazishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Buning uchun, avvalo milliy qadriyatlar, bayramu-sayillar va urf-odatlar haqida bolalarda tushuncha hosil qilish, vatan hakidagi she’rlarni yod oldirish, o‘quvchilarning o‘zlari chizgan vatan manzarasi tasvirlangan suratlar namoyishini tashkil qilish, milliy urf-odatlar aks etgan ko‘rinishlarni tayyorlash bilan ertaliklarga tayyorgarlik ko‘riladi.


Milliy bayramlarni boshlangich sinf o‘quvchilari bilan birgalikda nishonlash, avvalo o‘quvchilarda ona-vatanga, tabiat va jonzotlarga nisbatan mehr-muhabbat, g‘urur va iftixor hissini tarbiyalaydi. Bu kabi tarbiyaviy ishlarning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligi oshadi, dunyoqarashi kengayadi, asosiysi darsda olgan bilimlarini mustahkamlanadi, xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘quvchilar birdamlikka, jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

II.2. Interfaol metodlar orqali bayram tadbirlarini takomillashtirish

Interfaollik-o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklari. Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Interfaol metodlar ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, talaba va talabalar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahsmunozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – o'quvchi"ning o'zaro birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiymunosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

Interfaol metodni qo'llashda suhbat quyidagi shaxslar o'rtasida tashkil etiladi:



- Interfaol metodlar yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon

qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. Interfaol metodni qo‘llash orqali o‘qituvchilarning aniq ta’limiy-tarbiyaviy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini ta’lim-tarbiya sohasi tashkil etadi. Ayni damda ta’lim jarayoni islohoti rejalashtirilgandek amalga oshrilmoqda. Ya’ni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro'yobga chiqarishning uchinchi sifat bosqichida - «ta’lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o’quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o’quv adabiyotlari va ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minalash, uzluksiz ta’lim tizimini axborotlashtirishni amalga oshirish»¹⁹ vazifalari belgilab qo'yilgan edi. Shubhasiz, ushbu vazifadan maqsad mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoridan o’rin olishi, bozor iqtisodiyoti saroitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishishdan iboratdir.

Bugungi kunga kelib Respublikamiz uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar o‘z natijasini berdi va dunyo hamjamiyati tomonidan e’tirof etildi. Bu ulkan yutuqlarning samarasi sifatida ta’lim jarayonida keng qo’llanilib kelinayotgan zamонавиу pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligining oshganligini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Byram tadbirlarini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda va uning samaradorligini oshirishda o‘qituvchi va o’quvchi munosabatlari muhim o’rin tutadi. Chunki, yaxshi tayyorgarlik ko’rgan, o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari, ilg’or pedagogik texnologiyalarni biladigan, ulardan o’quv va tarbiyaviy mashg’ulotlarda to’g’ri foydalana oladigan o‘qituvchigina tadbirlar jarayonida ko’zlangan natijaga erishishi numkin.

Demak, innovatsiyalar yangiliklar asosida vujudga keladi va ta’lim jarayonini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo’ladi. Ta’lim jarayonida

¹⁹Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq NMK, 1997yil.

innovatsiyalardan o'rinli foydalanish o'qituvchi uchun ham o'quvchi uchun ham ko'plab qulayliklarni yaratib beradi. Xuddi shunday tarbiyaviy ishlarda ham innovatsion texnologiyalardan foydalanish faqat va faqatgina samaradorlikning oshishiga olib keladi.

Ta'lism-tarbiyani texnologiyalashtirish-o'qitish vositalari asosida ta'limga tashkil qilish, o'tkazish va baholash usullari majmui hisoblanadi.²⁰

Bunday innovation metodlarga kichik guruhlarda ishlashning quyidagi: «Aqliy hujum», «Rolli o'yinlar», «Munozara», «Yechimlar daraxti», «Sinkveyn», «Klaster», «Kubiklar», «B-B-B», “Zigzag”, Zinama-zina, Charxpalak, 3x4, Bingo va boshqa shakllarini misol qilib keltirish mumkin.

«Aqliy hujum»ning vazifasi o'quvchilarni ko'proq mustaqil fikrlashga va yangi g'oyalarni yaratishga undashdir. Masalan, bayram tadbirlarini tashkil etganda ham ushbu metoddan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadilar va har bir guruh nomlanadi. Ko'rik tanlov shartlari o'quvchilar tomonidan ishlab chiqilgan g'oyalar asosida baholanadi. Bunda o'quvchilar tomonidan bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar hisobga olinadi. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish uchun imkoniyat yaratiladi.

O'quvchilar faolligini oshiruvchi metodlardan biri - **sinkveyn** strategiyasidir. Sinkveyn-fransuz tilida «besh qator» ma'nosini bildiruvchi pedagogik strategiya hisoblanadi. Sinkveyn-ma'lumotlarni umumlashtirishga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqeа, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi tilidan turli variantlarda ifodalanadi.

Sinkveyn tuzish-murakkab fikrlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan ko'nikmadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzishda quyidagilarga amal qilish kerak:

1- qator: Mavzu birgina so'z, ot orqali ifodalanadi.

2- qator: Mavzu ikki so'zdan iborat sifat bilan ifodalanadi.

²⁰ Q.Olimov va b “Pedagogik texnologiyalar”. T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2011 yil.275 bet.

3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakat uchta so'z orqali ifodalanadi. Bu so'zlar fe'l yoki ravishdosh bo'lishi lozim.

4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan yaxlit fikr ifodalovchi gap yoziladi.

5-qator: Mavzuni takrorlaydigan sinonim so'z yoziladi.

Masalan:

Ertak

Qiziqarli, sehrli.

Ertak tinglash yoqimli.

Ertaklar- insonlarni yaxshilikka yetaklar!

Cho'pchak, matal.

Bayram tadbirlarida sinkveyn metodidan foydalanish natijasida o'quvchilar bilimi faollashadi, ularning tadbirga qiziqishi yanada ortadi.

Pedagogik texnologiyaning samarali metodlaridan biri bu - **klasterdir**. «Klaster» so'zi “g'ujum”, “bog'lam” ma'nosini anglatadi. Bu usul ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqeal)lar o'rtaida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi. Klasterlar asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi. Klaster tuzishda guruhdagi barcha o'quvchilarning ishtirok etishi lozim bo'ladi.

Shuningdek, tarbiyaviy ishlar jarayonida davralar metodidan foydalanish ham mumkin. Ushbu metod haqida pedagog olma T. G'afforovaning “Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” nomli o'quv qo'llanmasida quyidagicha fikrlar bildirilgan: “Bunda o'quvchilar davra qurib o'tirib, taklif etilgan savolni galma-gal izohlab chiqishadi. Har bir o'quvchi o'z fikrini bayon qilib, muhokamaga foydali ulush qo'shish imkoniga ega bo'ladi, chunki barcha qatnashchilarning fikrini bilish muhim. Lekin qatnashchilar o'z ixtiyori bilan navbatini o'tkazib yuboradigan bo'lsa, bu – tamomila odatdagicha hol. Ba'zan

qanday bo‘lmasin biror savol yoki topshiriq davra bo‘ylab o‘tkaziladi va uni olgan o‘quvchi o‘z fikrini aytish huquqiga ega bo‘ladi”²¹.

Davra metodida hamma teng huquqlidir. Bunda hamma bir-birini ko‘rib turishi, ishtirokchilar so‘zlayotgan kishining gaplarini diqqat bilan tinglashi lozim bo‘ladi. Davrani tashkil etishning muhim shartlaridan biri ishtirokchilar bir-birini ko‘rib tura oladigan joy tanlanishi, shuningdek, so‘zga chiqmaganlar diqqat bilan boshqalarni tinglab borishlari, aytilayotgan gaplarga izoh bermasliklari lozim bo‘ladi.

Shuningdek, ushbu qo‘llanmada **akvarium** metodi quyidagicha izohlanadi: “Guruhdan ixtiyoriy ravishda 3 kishi tanlab olinadi. Bular sinfning o‘rtasidan joy oladilar – go‘yoki “baliq”, qolganlar esa, kuzatuvchi bo‘lishadi. Shu kichik guruhga bir vaziyat taklif etiladi, ular buni 10– 15 daqiqa davomida birgalikda muhokama qilishlari, kuzatuvchilar esa, davradagi o‘rtoqlarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javoblarini yozib borishlari kerak. Avval “baliqlar” g‘oyasi taklif etiladi, uni kuzatuvchilar muhokama qilishadi, keyin kuzatuvchilar o‘z g‘oyalarini taklif etishadi, shu g‘oyalardan eng yaxshisining muallifi o‘z g‘oyasini taklif etmagan o‘quvchi o‘rniga kichik guruhga o‘tadi”²².

“Akvarium” metodining afzallikkleri quyidagilardan iborat:

- mavzu barcha ishtirokchilar tomonidan muhokama qilinadi;
- metodni bajarish jarayonida mavzu qismlarga ajratiladi, o‘quvchilar bilimini tekshirish imkoniyati yuzaga keladi;
- mashg‘ulot o‘yin ko‘rinishida tashkil etilishi bois, qiziqarli o‘tadi;
- barcha o‘quvchilarning ishtirok etishi ta’minlanadi.

Boshlang‘ch sinflarda bayram tadbirlarini o‘tkazishda “blits– o‘yin ” texnologiyasidan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Blits– o‘yin texnologiyasi o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan narsa va predmet asosida xilma-xil fikrlardan to‘g‘risini tanlab olishga o‘rgatadi. O‘yin davomida o‘quvchilar o‘zlari to‘g‘ri deb bilgan javobni boshqalarga o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, chunki

²¹ G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamонавиј pedagogik texnologiyalar. Qarshi. Nasaf.: 2009, -115 b.

²² O’sha kitob -118 b.

o'yinning muhim shartlaridan biri ham shudir. Ushbu texnologiya ko'p bosqichlarda amalga oshiriladi. Boshlang'ch sinf o'quvchilari uchun texnologiya shartlarini soddalashtirish, o'quvchilarining yoshiga mos holda o'yinni tashkil etish mumkin.

Zinama- zina texnologiyasi.

Texnologianing tavsifi. Bu texnologiya o'quvchilar bilan bir guruh, ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi.

Texnologianing maqsadi. O'quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Texnologianing qo'llanishi: Darsda va darsdan tashqari bayram tadbirlarini o'tkazishda hamda nazorat darslarida qo'llanilishi mumkin.

Qo'llaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatli qog'ozlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar (flomaster yoki rangli qalam)lar. Mavzu o'tkazilayotgan bayram tadbiri asosida.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- O'qituvchi tadbir boshlangunga qadar o'quv materialini bir necha kichik mavzularga bo'lib oladi (masalan, 2 yoki 3 ta, 4 yoki 5 ta ...);
- O'qituvchi o'quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo'lgani ma'qul);
- O'qituvchi o'quvchilarni tadbirning maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi. Har bir guruhgaga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi;
- O'qituvchi guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;

- Guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki chizma) ko'rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi.
- Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material albatta, sinf doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi;
- O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va yakunlaydi (taqdimot vaqtida boshqa guruh a'zolari ham taqdimot qilingan mazmunga o'zlarining fikrlarini bildirishlari mumkin).

Berilgan topshiriqlar quyidagi zina tariqasida joylashtiriladi.



Yuqorida keltirilgan metodlardan foydalanish boshlang'ch sinflarda tashkil etiladigan bayram tadbiralarini samaradorligini oshirib, oquvchilarda faoliik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, mustaqil fikr lash kabi qobiliyatlarini o'stiradi, ularning darslarda olgan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Quyida interfaol metodlar asosida o'tkazilgan tadbir ishlanmasi keltirildi.

“QUSHLAR BAYRAMI “ ERTALIGI

Ertalikning maqsadi:

- a) o'quvchilarda ona tabiat, hayvonot dunyosi va qushlarga nisbatan ijobiy munosabat hamda ularni asrab-avaylash ko'nikmasini shakllantirish;
- b) bolalarda qushlarning yashash tarzi, oziqlanishi, ko'payishi, rivojlanishi haqida bilim, tushunchalarni hosil qilish;

Bayram tayyorgarligi: Bayram o'tkaziladigan joy va uning jahozi: zal bayramona bezatilgan. Sahna atrofiga har xil qushlar surati aks etgan plakatlar, "Qushlar bizning do'stimiz", "Qushlarni seving" shiorlari osilgan, qafaslarda jonli qushlar keltirilgan, ora-surada bedana qushining jarangdor, sayroqi ovozi eshitilib turibdi. Sahna milliylikka yo'g'rilgan ruhda.

Mas'ul shaxslar: ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari, sinf rahbari, ota-onalar qumitasi raisi va sinf faollari.

Bayram rejasi:

1. Kirish. (Kechani ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari ochib beradi)
2. Asosiy qism: O'quvchilarga bayram ochiq deb e'lon qilinadi; Tadbir boshlanadi.
3. O'quvchilar ishi bo'yicha "Yosh musavvirlar" musobaqasi uyushtiriladi.
4. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.
5. Tadbir yakunlanadi.

Tadbir syenariysi:

Bayram jarchilarning chiqishi bilan boshlanadi:

- 1- jarchi: Bolalar-u bolalar,
- 2- jarchi : Yurtdagi gul- lolalar!
- 1- jarchi: Eshitmadim demanglar,
- 2- jarchi: Eshitganlar jilmanglar,!
- 1- jarchi: Bugun maktabimizda
- 2- jarchi: Katta tadbir bo'ladi, ho-ho-hoy!

1-2- jarchilar:

"Qushlar bayramiga xush kelibsizlar!!!

Sahnaga 2 ta boshlovchi chiqadi:

1-boshlovchi:

Assalom bayramimizning quvnoq o'g'il-qizlari,
She'riyat osmoninig chaqnoq yulduzları,
Qabul aylang do'stlarim, deymiz assalom,

Qo'limiz ko'ksimizda, salom-assalom!

2-boshlovchi:

Assalomu alaykum aziz mehmonlar, ustozlar, qadrli o'quvchilar. Mana bugun maktabimizda katta tantana.”Qushlar bayrami” mavzusiga bagishlab o'tkazilayotgan tadbirimizga xush kelibsizlar!

(Davraga qaldirg'och kiyimidagi bola keladi.)

O'quvchilarga qarab:

Qaldirg'ochman qaldirg'och

Men keldim yozib quloch.

Horib keldim men shu choq

Ko'kka solib arg'imchoq

O'quvchilar:

Qaldirg'ochjon kelaqol,

Bizga mehmon bo'laqol.

Boshlovchi:

Qaldirg'och do'stlaring qani,

Qaldirg'och:

Ularga yo'lida bir yomon bola duch keldi. Ular kelishga qo'rqlihyapti.

(Davraga yomon bola qiyofasidagi bola kirib keladi.)

Yana qaldirg'och: U qushlarga tosh otadi.

Boshlovchi: Bolalar aytinchchi qushlarga tosh otgan bola qanday bola?

Hamma:

Yomon bola

1- o'quvchi:

Yaxshi bola emasdир- u,

Sizga aytar so'zimdir bu,

Qushlar bilan do'stlashmay,

Ularga tosh otgan bola.

2- o'quvchi:

Uni derlar berahm,

Qilar ishi doim zahm.
Bebosh, nodon, kaltafahm
Qushlarga tosh otgan bola.

Boshlovchi: Mana do'stlar, qushlarga ozor bergan bolalar yomon bola bo'ladi. Biz qushlarga don berib, uyalar yasab berishimiz kerak. Sizlar qushlarni qiynamaysizlarmi?

Hamma:

Yo'q,
Boshlovchi:
Ularga yordam berasizmi?

Hamma: Ha.

Yomon bola qilmishidan uyalib kechirim so'raydi, shundan so'ng bolalar qushlarni chaqirishadi:

Hoy qushlarjon kelinglar,
Bizga mehmon bo'linglar.

(Qushlar kiyimidagi bolalar kirib keladi: kaptar, turna, chittak, kaklik, bulbul, turg'ay, zag'izg'on, musicha, qizilishton)

Kabutar:

Tinchlik qushi kaptarman,
Xabarchilikka borman.
Oppoq-oppoq qanotman,
Qushlar ichra bir zotman.

Turna:

Men turnaxon bo'laman,
Fazolarni kezaman.
Bahordan berib darak
Kuylab qo'shiq aytaman.

Chittak:

Men qushchaman mittigina,
Tillarim chuchukkina,

Olachipor qanotim,
Bilsangiz chittak otim.

Kaklik:

Kaklik qushman yayrayman
Bog'larda men sayrayman.
O'ynab dala qirlarda,
Kakku deya kuylayman.

Musicha

Meni ko'plar yuvosh der,
Kuk-ku-g'u.
Ba'zi birov bevosh der,
Kuk-ku-g'u.
Dehqon meni siylaydi,
Kuk-ku-g'u.
Omborchilar quvlaydi,
Kuik-ku-g'u.

Qizilishton

Daraxt qurtin teraman,
Taq-tuq-taq.
Unga shifo beraman,
Taq-tuq-taq.
Bog'lar bo'lzin hosildor,
Taq-tuq-taq.
Bog'bonga men madadkor,
Taq-tuq-taq.
Nog'oracho'p tumshug'im
Taq-tuq-taq.
Nafsiz ketmas qo'shig'im,
Taq-tuq-taq.

To'rg'ay

To'rg'ay, to'rg'ay, to'rg'ay
Bug'doyzor, qir, o'rga kel,
Qo'shiq ayt don haqida,
To'qchilik, non haqida.

Zag'izg'on

Laqqillamay sahardan,
Darak b ergin shahardan.
Yuraklarga dalda ber,
Yoz kelar, deb va'da ber.
Kelib qolsak duch agar,
Faqat keltir xushxabar.

Bulbul:

Bulbul deyishar meni,
Tinglashar sahar meni,
Xushovoz ovozim bor,
Kuylarman men betakror.
(Qushlarni o'tirishga taklif qilinadi.)

1-boshlovchi: bizning o'lkaza xush kelibsiz. Endi do'stlar qushlarni she'r, qo'shiqlarimiz bilan xursand qilamiz.

3-boshlovchi: hozir qushlar haqida qo'shiq tinglaymiz.

(Qo'shiq ijro qilinadi.)

1- boshlovchi: hozir biz qushlarni nechog'li bilishingiz haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Buning uchun "sinkveyn" metodidan foydalanamiz.

O'quvchilar ikki guruhg a bo'linadi:

1-guruh 2-guruh

"Qaldirg'och", "Kabutar" so'ziga sinkveyn usulida ta'rif
berishadi.(masalan)

1. Qaldirg'och
2. Beozor, nozik
3. Bahorda uchib keladi

4. Qizlar qoshi qaldirgoch qanotidek

5. Qush.

O'quvchilar baholanadilar.

3- **boshlovchi:** hozir biz o'quvchilarimiz ishtirokida "Buzilmagan uya" sahna


ko'rinishini tomosha qilamiz.(4-sinf o'qish kitobi 201- sahifa asosida)

1- **Boshlovchi:** "Klaster" metodidan foydalanib o'quvchilarning qushlar nomini

qay darajada bilishlarini aniqlaymiz:


(2 guruhi asosida o'tkaziladi)

1-guruhi



2-

guruh



(O'quvchilar ballani rag'batlantiriladi.)

1-boshlovchi: endi o'quvchilarimiz o'z ijod namunalarini asosida chizgan suratlarini namoyish qilishadi. (o'quvchilar uylarida chizib kelgan suratlarini ta'riflab berishadi.)

Boshlovchi so'z navbatini o'qituvchiga beradi. O'qituvchi kamchilik, yutuqlar haqida gapiradi. Qushlar haqida aytilmagan ma'lumotlarni keltiradi va g'olib jamoani e'lon qiladi.

O'qituvchi: Aiz bolajonlar! Shu bilan bugungi tadbirimizni yakunlaymiz, faol ishtirokingiz uchun sizlarga katta minnatdorchilik bildirib qolamiz. (musiqa yagraydi. Tadbir yakunlanadi)

Bu ertalik orqali o‘quvchilar yurtimiz tabiatini, undagi bahor munosabati bilan bo‘ladigan tabiat hodisalari, qushlarning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi ma’lumotga ega bo‘ladilar. Qolaversa, bolalarda ona-tabiatni asrash, qushlarga ozor bermaslik, tevarak-atrofni ifloslantirmaslik, daraxt va ko‘chatlarni ko‘paytirish ishlariga o‘z hissalarini qo‘shish ko‘nikmasi shakllanadi.

Tajriba guruhi tanlab oldik. Amaliyot davomida tajriba guruhlarida darsdan tashqari vaqtida bayram tadbiralarini tashkil etdik. Quyida o’tkazilgan tajriba –sinov bayram tadbiridan namuna keltiramiz.

“Istiqlolim - istiqbolim”.

“Istiqlolim - istiqbolim” mavzusida Mustaqillik bayramini nishonlashga bag’ishlangan bayram tadbiriga bag’ishlanadi.

Maqsad: O’quvchi - yoshlarni O’zbekistan Respublikasining Mustaqillikka erishishi xalqimizni necha yillik orzularini ushalishi bilan qimmatli ekanligi xaqidagi tushuncha va tasavvurlarini boyitish.

- o‘quvchilarda Mustaqil O’zbekiston farzandi ekanligi bilan faxrlanish tuyg’usini o’stirish.
- Milliy g’urur va o’zlikni namoyon eta bilishga o’rgatish.

Maktab sahnasi bayram ruhiga mos bezatilgan sahna fondida quyoshli tiniq osmon uzoqdan tog’lar, paxta. bug’doylar tasviri O’zbekiston manzaralarini aks ettiradi.

Bayram boshlanishida A. Nazarovning “Iftixor valsi” musiqasi yangraydi. Raqqosa qizlar guruxi bayram shodiyonasini nafis xarakatlari bilan ifodalaydilar. Raqs tugagach, O’zbekiston Davlat madhiyasi yangraydi. Tantanavor kuylar sadosi ostida sahnaga boshlovchilar chiqib kela boshlaydilar.

1-o’quvchi: Orzularim qasrini ochib,

Bag’ring ichra yashay deyman.

Boshing uzra mexrim sochib,

Baxtim kuchib yashay deyman.

Ey musaffo yorug’ jaxon,

O’zbekiston, O’zbekiston.

2-o'quvchi: Senga farzand bo'lish baxti,

Yayrab, yayrab kuylay deyman.

Sadoqatdir senga ahdim,

Sen olloxdan oliy ehson.

Keng olamga so'y lab deyman,

O'zbekiston, O'zbekiston.

1-o'quvchi: Assalomu alaykum, istiqlolning faraxbaxsh, musaffo oftobidan baxra olayotgan elimning egasiman degan yoshlarga g'ayrat va shijoatkorlikni, xalollikni vatanparvarlikni, insonparvarlikni o'rgatib kelayotgan ustozlar xamda kelajagimiz bunyodkori bo'lishga azm etib, bilim cho'qqilari sari maroqlanib intilib yashayotgan - yoshlari.

2-o'quvchi: Assalomu alaykum mexri daryo zaxmatkash ustozlar mana shunday shodiyona kunlarda ajdodlarimizning azaldan vatan ozodligi, erki, milliy istiqloli uchun kurashib jonlarini fido etib kelganlari bilamiz. Uzoq yillar milliy g'urur va iftixor tuyg'ulari bilan yashab ular vujudini kuydirgan xavsizlikka adolatsizlikka, "Ochiq ko'z", "Yoniq qalb" Yuksak ong bilan o'z etiqodlari uchun kurashganlar.

1-o'quvchi: Va nixoyat, ajdodlarimizning oltin boshlari, zavol bo'lgan aziz jonlari, daryo bo'lib oqqan qonlari evaziga mustaqillikka erishdik.

2-o'quvchi: Istiqlol Sening nuring, sening shukuxing, o'zgacha. Har bir qalbda milliy g'urur va milliy iftixor quvonch, shodliklar cheksiz.

1-o'quvchi: Tillarda O'zbekiston lutf, dillarda iymon, nuroni yuzlarda g'alaba g'ururi, jushqin qalblarda yaratish, ezgulik, g'ayrat, shijoat.

2-o'quvchi: Vatanim! Barkamol avlodlaring "Istiqlol" sharafini saqlashga ximoya qilishga shaydir.

1-o'quvchi: Erk va ozodlik uchun kurashgan Tumaris, Shiroq, Muqanna, Forobiy kabi ulug' ajdodlarimiz qadim tariximiz qaridan bizga vatan muqaddasligi xaqida roz aytishmoqdalar.

2-o'quvchi: Biz kimlarning avlodi ekanligimizni istiqlol tufayli bilib oldik.

1-o'quvchi: Imom Al-Buxoriy, Imom At- Termiziy. Imom Abu- Mansur Motrudiyy, Burxoniddin Marg'iloni, Muxammas Al- Xorazmiy.

2-o'quvchi: Axmad Fargoniy, Abu-Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Farobi, Shayx Najmuddin Kubro. Axmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Amir Temur.

1-o'quvchi:: Mirzo Ulug'bek Bobur kabi jaxon taraqqiyotiga beqiyos xissa qo'shgan buyuk allomalar bilan xaqli ravishda faxrlanamiz.

2-o'quvchi: Azizlar! Istiqlol nurafshon kun muborak.

1-o'quvchi: Xa. butun diyorimizda katta tantana, mustaqillik bayrami. Shonshuxratimiz, tilimiz, dinimiz. erkimiz ozodlik va obodlik kunlarimizning qayta tiklangan kuni muborak!

2-o'quvchi: Siz azizlarni eng ulug' bayram mustaqillik kuni bilan qutlaymiz. Ommaviy raqs bilan istiqlolni madx etuvchi qo'shiq ijro etiladi. Musiqali nomer tugagach, saxnada turon zaminining tarixiy shaxslari siymosi saxnada va tomoshabinlar orasida jonlanadilar. Sado, zamon navolari ketma-ket yangraydi.

Alpomish Avlodlar xotirasida ezoz topishni istasangiz, vatan va millat shanini ximoya qiling. El-elat nomusi yuksak. Ona yurt turpog'i muqaddas. G'animu

gadoydan yurtni ximoya qilish sharofati, mardlarga xos ishdir. Ey jo'shkin yosh yuraklar Vatanni seving millatimiz faxri iftixoriga aylaning! Faqat olg'a bosing, endi ortga yo'l yo'q. Bu yurt dovrug'ini barcha jabxalar bo'yicha olam uzra yoying. Vatan taraqqiyotini taminlang va obro'yini mustaxkamlang. Vatanimizni baxtlar, omadlar quchsin. Yoshlarimizning shaxdu - shijoatidan yurtimiz nurlansin, quvvatlansin.

Saroymulkhonim - Men kim Saroymulkxonim ulug' bobomiz Amir Temur xoqoni oliyalari bilan xalq vatan uchun ko'p savobli ishlarga bosh bo'ldik. Qudratimiz jaxonga ko'z – ko'z qila oladigan, asori - atiqalarimiz memoriy inshoatlarni sizlarga o'chmas meros qilib qoldirdik. Ilm sultonim Mirzo Ulug'bek, shox va shoir, sarkarda Zaxiriddin Muxammad Bobur kabi ilmu-fan. taraqqiyot va

falakiyotning rivoji uchun xomiylik qilgan. Ularning qalbidaadolat, ezgulik, xalollik olıyjanoblik iymon kabi yuksak tuyg`ularin jo ayladik.

Amir Temur – O'zbekiston gohida iqbolim ko'rib,

Gohida o'zimdan chiqqan ofatim.

Dunyoni o'lmasdan jaxongir bo'lib,

Go'dak yig'isiga yo'qdir toqatim.

Barchin - Yuragida o'ti bor Yigitlar.

Tomirida mard ajdodlar qoni jo'sh urgan avlodlar.

Istiqlolni mustaxkamlash, uni asrash burchimizdir.

Ochilar bog'larda baxorning guli.

Gulni ko'rib mast bo'lib, sayrar bulbuli.

Yigitlar yiqitmasangiz yovni,

Erkak libosin bering o'zim kiyayin.

Bor kuchimni bilagimga yig'ayin.

Tumaris – O'zbekistan onalari qulqoq tutingiz,

Tig'ni qo'lga maxkam tutingiz.

Tinchlik uchun posbon bo'lingiz,

G'animplar qo'liga aslo o'g'lonlarni berib kuymangiz.

Qurbanjon dodxo - Men "Oloy malikasi" Qurbanjon Dodxox millatning el-ulusning oliy maqsadi bo'lган vatan ozod bo'lishi o'z istagimdan yuqori qo'ydim. Bosqinchilar xiyla bilan meni bir ona sifatida ruximni sindirmoq uchun ug'limni garrovga qo'ydilar. O'g'limni xayotini saqlab qolib, yovga taslim bo'lgandan ko'ra xar kim ming minglab ug'il - qizlarining xayotini saqlab qolib, o'z o'g'limning qurban bo'lishini afzal bildim. Vatan o'g'lonlari, tinchlik uchun posbon bo'lsangiz mana shunday "istiqlol bayramlari, tantanalari, to'ylari bo'laveradi. Vatan muqaddasdir!

Nodira - Shodu xurramlik bilan g'am-g'ussanining orasi bir qadam. Bugun bayram. Ertangi kundan ogox bo'ling! Men kimman Nodirai Davron yog'iylar makriga xamisha pand yedim. Xalq, Vatan, millat tuyg'usini ustivor bilib or-nomus g'ururni sarbaland etdim.

Tantanovor kuy yangraydi.

1-o'quvchi: Nurga to'lsin gulzorga makon bo'lsin bu dunyo. Tinchlik bo'lsin, mexnat gashti sevgi fasli tinmasin.

2-o'quvchi: Nur belanchak, osuda tong, qo'shiq, yalla taralsin. Istiqlol istiqboling chorlasin.

1-o'quvchi: Men jo'shib kuylayin, qo'shiq aytayin. Vatanim to'yxona gulxan bo'lsin. Men senga aytayin alyor naylar. Vatanim muborak bo'lsin bayraming!

2-o'quvchi: Beshikda tinch yotar go'dak jon.

Kulgasiga sadoqat bu jon.

Millat uchun kim bo'lsa qalqon,

Parvardigor ayirmasin.

Yigit: Joningni tut, joni fidoga,

Aytganing bor ekan xudoga.

O'zbekiston qo'l och xudoga,

Parvardigor o'zi asrasin.

Istiqlolni madx etuvchi konsert dasturi namoyish etiladi. Oxirida ommaviy tarzda Anor Nazarovning "Istiqlol" qo'shig'i yangraydi.

Tadbirdan olgan bilimlarini aniqlash va mustahkamlash maqsadida "Kungaboqar" texnologiyasidan foydalandik. Ushbu texnologiya quyidagicha olib boriladi.

"Kungaboqar". O'quvchilar 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo'linadi. O'qituvchi tadbirning mavzusidan kelib chiqib, o'rtaqa bitta muammoni tashlaydi. Ya'ni "Istiqlolim - istiqbolim" deb nomlangan tadbir mazmunidan kelib chiqib savol qo'yildi. Topshiriq mavzusi: "Ajdodlarimizning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari va ularning ahamiyati". O'tkazilgan tadbir yuzasidan berilgan topshiriqqa o'quvchilar diqqati qaratiladi. Ushbu usulning qoidasi tushuntiriladi. Har bir guruh ishlashga kirishadi.

Guruhralar kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga umumiyl bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi. Ajratilgan vaqt ichida guruhralar birgalikda fikrlarini

gulga va bargiga yozib, uni o'sha guruh muammosi yozilgan qismga joylashtirib qo'yadilar. Bu uslubdan o'tkazilgan tadbir yakunida foydalanib, o'quvcilarni tadbirdan olgan bilimlarini aniqlash va uni mustahkamlash hamda tadbirni samaradorligini takomillashtirish maqsadida foydalanildi. Ushbu usul maqsadga muvofiq holda olib borildi hamda samarasi aniqlandi.

O'tkazilgan tajriba ishlaridan keyin o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi ancha rivojlandi. Bu quyidagi tajriba-sinov natijalarida ko'rsatilgan.

Pedagogik tajriba- sinov natijalari va tahlili

Yuqorida keltirigan ilmiy,nazariy va metodik manbalarni amaliyatga tadbiq etish maqsadida pedagogik tajriba- sinov ishlari yo`lga qo`yildi.

Pedagogik tajriba- sinov ishlari asosan, Termiz shahar 10-umumta`lim maktabining tanlangan boshlang`ich sinflarida olib boriladi.

Tajriba- sinov ishlari ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Pedagogik tajriba-sinovning birinchi bosqichi 2^{"a"} va 2^{"b"}boshlang`ich sinflarida o'tkazish nazarda tutiladi.

Unda boshlang`ich sinflarda bayram tadbirlarini takomillashtirishning usullari va xususiyatlarini aniqlash maqsadida mktabning boshlang`ich sinf o'qituvchi va o'quvchilari bilan doimiy ravishda suhbatlar savol- javoblar, so`rovnomalar, kuzatishlar o'tkazib borildi va yozma nazorat ishlari ham o'tkazildi.

Olingen natijalar boshlang`ich sinflarda bayram tadbirlarini takomillashtirishning mazmuni va sifati yaxshilashga yordam berdi.

Yuqorida takidlangan boshlang`ich sinflarda tajribali o`qitishni ilmiy jihatdan sinab ko`rish uchun olingen tajriba va nazorat sinflarni shartli ravishda quyidagicha belgiladik.

Bunda 2^{"a"}-sinfi tajriba, ya`ni boshlang`ich sinflarda bayram tadbirlarini takomillashtirishga oid 2^{"b"}- sinfi esa nazorat sinflar qilib olindi.

Pedagogik tajriba sinovini olb borish uchun tanlangan umumiyl o`rta ta`lim maktabining boshlang`ich sinf o'quvchilariga tajriba sinovni o'tkazish uchun tayyorlangan metodik yordam berib borildi .

Tanlangan boshlang`ich sinflarida esa 2- sinf misolida bayram tadbirlarini takomillashtirishga asoslangan metodlar bo`yicha test, so`rovnoma savollari, tarqatma materallar va elektron vositalardan foydalanib o`quvchilarning bilimi, o`zlashtirish darajasi o`rganildi va tahlil qilindi. Unda har ikkala sinfdan 52 ta boshlang`ich sinf o`quvchisi ishtirok etdi.

Quyidagi jadvalda tanlangan tajriba va nazorat sinflarda bayram tadbirlarini takomillashtirish asosida o`quvchilarning bilimi, o`zlashtirish darajasi bo`yicha o`tkazilgan birinchi bosqich tajriba- sinov natijalari ko`rsatigan.

2.3.1-jadval

Sinflar	O`quvchilar soni	O`zlashtirish darajasi (ballar bo`yicha)			
		86-100	71-85	55-70	55 dan kam
2 ^{"a"} - sinf (tajriba sinfi)	26	4	7	6	9
Umumiy o`zlashtirish 65 %					
2 ^{"b"} -sinf	26	4	6	8	8
Umumiy o`zlashtirish 69 %					

Olib borilgan birinchi bosqich pedagogik tajriba – sinov natijalariga asoslanib tanlangan boshlang`ich sinflarda 2- sinflarda bayram tadbirlarini takomillashtirishga asoslangan metodlardan dars jarayonida o`quvchilarning bilimi, o`zlashtirish darajalari ikkala sinfda ham qoniqarli darajada emasligi aniqlanadi.

Shu bois yuqorida keltirilgan kamchiliklar:

- boshlang`ich sinflarda bayram tadbirlarini takomillashtirish jarayonida interfaol metodlardan atroflicha foydalanmasligi o`quvchilarning bilimi, o`zlashtirish sifatini pasaytiradi.

Boshlang`ich sinflarda bayram tadbirlarini takomillashtirishda interfaol metodlaridan unumli foydalanmasligi nazariya bilan amaliyat uzviyilagini tushuntirishni qiyinlashtiradi.

Pedagogik tajriba-sinovning ikkinchi bosqichi 2016 – 2017o`quv yillarida Termiz shahridagi 10- umumiy o`rta ta`lim maktabining tanlangan boshlang`ich sinflarda (2^a-sinfi tajriba, 2^b- sinf nazorat) o`tkazildi.

Tajribali o`qitish oldingi pedagogik tajriba- sinov jarayonida to`plangan tajribalarga tayanib olib boriladi. 2- sinf bayram tadbirlarini takomillashtirishda uchragan kamchiliklar hisobga olinib, o`quvchilar bilimidagi kamchiliklar tuzatildi.

Unda boshlang`ich sinf bayram tadbirlarini takomillashtirishda e`tibor berish zarurligi va bajarilgan tajribalarning qiziqarli va samarali bo`lishi uchun qanday metodlarni qo`llash mumkinligi to`g`risida tajriba sinov olib boriladigan o`qituvchilrga metodik ko`rsatma va tavsiyalar berib o`tildi.

Tajribali o`qitish sinf o`quvchilariga tavsiya qilingan didaktik materiallarni o`rganish jarayonida quyidagi didaktik tamoillarga qat`iy rioya qilindi.

1. boshlang`ich sinf bayram tadbirlarini takomillashtirishga doir tanlangan metodlar o`quvchilar tomonidan tushunarli bo`lishligi.

2. boshlang`ich sinf bayram tadbirlarini takomillashtirishda metodlarining ijobiy ta`sir ko`rsatishligi.

3. Tajriba sinf o`quvchilariga boshlang`ich sinf bayram tadbirlarini takomillashtirishga doir nazariy bilim, amaliy ko`nikma va malakalarning chuqur, puxta bo`lishligi.

Tajriba- nazorat sinf o`quvchilariga bayram tadbirlarini takomillashtirishda quyidagi metodlaridan o`rni bilan foydalanib borildi: suhbat, og`zaki bayon etish, savol- javob, kuztish.

Pedagogik tajriba sinovining bu bosqichida tavsiya etilayotgan, tanlangan boshlang`ich sinflarda bayram tadbirlarini takomillashtirishda o`quvchilarning o`zlashtirganlik darajasi tekshirib ko`rildi.

Tabiatshunoslikni o`qitishda o`quvchilarning o`zlashtirish samaradorligini tekshirib ko`rish uchun tajriba sinflarda qo`shimcha ravishda Pedagogik tajriba – sinov ishlari olib borildi.

Nazorat sinflarida esa an`anaviy metodlardan foydalanib olib borildi.

Quyidagi jadvalda 2- sinf o`quvchilarida (tajriba va nazorat sinflarida) boshlang'ich sinf bayram tadbirlarini takomillashtirish bo`yicha o`tkazilgan ikkinchi bosqich tajriba sinov natijalari ko`rsatilgan.

2.3.2-jadval

Sinflar	O`quvchilar soni	O`zlashtirish darajasi (ballar bo`yicha)			
		86-100	71-85	55-70	55 dan kam
2 ^{"a"} -sinf (tajriba sinfi)	26	5	9	9	3
Umumiy o`zlashtirish 88 %					
2 ^{"b"} -sinf (nazorat sinfi)	26	2	7	10	17
Umumiy o`zlashtirish 73 %					

Pedagogik tajriba- sinov jarayonidagi tahliliy ma`lumotlarga ko`ra tanlangan tajriba sinfi o`quvchilarining bayram tadbirlarini takomillashtirishga oid metodlardan foydalanish bo`yicha o`zlashtirish darajasi nazorat sinfi o`quvchilariga nisbatan yuqori ekanligi ilmiy asosda o`z isbotini topdi.

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarini turlari, tashkil etishning yo'l-usullari, vositalari bilan tanishib chiqdik va tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Natijada, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Bayram tadbirlarini tashkil etishda o'quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish lozim; bunda bolaning ichki ma'naviy dunyosi, histuyg'ulari, munosabatlari, tengdoshlari bilan aloqalari tarbiyaviy ta'sirdan chetda qolmasligi kerak;
 2. Ajdodlarimiz merosida ta'lim-tarbiya ishlariga katta e'tibor qaratishgan, shuningdek ularning ta'lim-tarbiyaviy g'oyalaridan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mazmunini takomillashtirishda asos sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.
 3. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligi o'qituvchi va o'qituvchilarining mazkur faoliyatga maxsus yo'naltirilganligiga bog'liqdir.
 4. Bayram tadbirlarida interfaol metodlarning imkoniyatlaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish zarur. Bu o'rinda takomillashtirish omili sifatida interfaol metodlardan foydalanish maqsad qilib olinsa va undan unumli foydalanilsa natija yuqori bo'ladi.
5. Bayram tadbirlarini o'tkazishda tashkil qilish prinsiplariga amal qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.
- Boshlang'ich ta'lim jarayonida bayram tadbirlarini tashkil etish va takomillashtirishga doir metodik qo'llanmalar, ko'rsatmalar tayyorlanishi va nashr etilishi va ulardan unumli foydalanish ham hozirgi kunning talablaridan biridir.

TAVSIYALAR

Yuqoridagi vazifalarni amalgalarga oshirish uchun yordam beradigan quyidagi tavsiyalarni bayon etishni lozim topdik:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari bayram tadbirlariga rahbarlik qilishda, avvalo milliy qadriyatlarga, ularning ahamiyatiga, ijtimoiy xarakteriga e'tibor berish kerak (masalan, ertak va maqollar vositasida; tarixiy mavzular yoki milliy bayramlar: "Navro'z", "Mustaqillik kuni", "Bilimlar kuni" va shu kabilar);

2. Yaxshi ishtirok etgan o‘quvchilarni, sinfni maktab jamoasi oldida moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish;
3. Darsdan tashqari tadbirlar orqali o‘quvchi shaxsidagi axloqiy sifatlarni rivojlantirish yo‘llarini izlash;
4. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga rahbarlik qilishda milliy qadriyatlar ta’siri vositasida ba’zi o‘quvchilarda mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf qilib borish;
5. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bunday tadbirlarda zo’r ishtiyoq bilan qatnashadilar. Ba’zan hamma o‘quvchilar ham birdek talabga javob bera olmaydilar, shu sababdan ularning ishtirokiga asta-sekinlik bilan erishish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T.: O'zbekiston, 1998. - 47 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to‘g‘risida»gi Qonuni. 1997yil.
- 3.Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1998, 20-29-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2004 yil 21 maydag‘i “2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni .Ma’rifat, 2004 yil 22 may.
5. Karimov I.A. “ Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi”. 5-tom. – T.: O'zbekiston. 1997. - 384 b
6. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi-Toshkent “O’zbekiston” 1997 y.
7. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. 379 b
- 8.Karimov I.A ”Sog‘lom bola yili”Davlat dasturiga bag‘ishlangan ”Farzandlari sog‘lom mamlakatning kelajagi buyukdir”ma’ruzasi. Toshkent, 2014yil, 19-fevral
- 9.Karimov I. A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. T.: 2010 yil.
10. Karimov I.A. “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish-eng oily saodatdir ”.T.:O’zbekiston NMIU,2015 yil.301bet.
11. Ashurova. Z.Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.:Istiqlol. 2003 y, 150 b.
12. Azarov Yu. Tarbiyaviy ish metodikasi. T.: O'qituvchi, 1991,

374 b.

13. Azizzxo'jayeva N.N "Pedagogik texnologiya va Pedagogik mahorat".T.:O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi,2006 yil.159 bet.
 14. Ismoilova A.“ Darsdan tashqari ta'lif –tarbiya jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari” nomzodlik dessertasiyasi. T :. 2004yil.
 15. Ibrohimov A. Biz kim o'zbeklar.-T.: Sharq, 2001.- 395 b.
 16. Mahmudov S. O'zbek udumlari.-T.: Fan, 1993.- 218 b.
 17. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 190 b.
 18. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari.- T.: Fan, 1994.- 133 b.
 19. Mirtursunov Z. O'zbek xalq pedagogikasi.- T.: Fan, 1973.- 210 b. Asarlari:
 20. Munavvarov A.Q “Pedagogika”.T.:O'qituvchi nashriyoti, 1996 yil.199 bet.
 - 21.Mavlonova R. B.Normurodova “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”.Toshkent 2012yil.140 bet.
 - 22.Mahmudov Yu va b “Milliy g'urur-ma'naviy komillik mezoni”.T.: Dizayn-press, 2011 yil.327 bet.
 - 23.Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari.- T.: Fan, 1994.- 133 b.
 24. Olimov Q va b “Pedagogik texnologiyalar”.T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2011 yil.275 bet.
 25. Oripova N., Muhammadiyeva M., Yarmanova Yu. Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi.Qarshi”Nasaf”, 2013.-67 b.
 26. Qoraboyev U. O'zbekiston bayramlari.- T.: O'qituvchi, 1991.- 186 b.
 - 27.Rahmatullayev A va b “Uzluksiz ta'lif tizimida innovation texnologiya”.Nasaf nashriyoti,2013 yil.42 bet.
 28. Safarov O. Folklor – bebafo hazina.T.: “Muharrir”2010.-359 b
 29. Safarova N.O'zbek bolalar o'yin fol'klori tabiat. T.: “Fan”, 2008.-143 b.
 30. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi.- T.: O'zbekiston, 1998.- 335 b.
- Safarov O. Folklor – bebafo hazina.T.: “Muharrir”2010.-359 b

31. Xasanboyeva O va b “Odobnama o’qitish metodikasi”.T:. Bilim nashriyoti-2003yil.223 bet.
- 32.Yo‘ldosheva R. O‘zbek xalq o’yinlarining tarbiyaviy ahamiyati.-T.: O‘qituvchi, 1994.- 119 b.
33. Ziyomuhhammadov B, M.Tojiyev. “Pedagogik texnologiya-zamonaviy o’zbek milliy modeli”.T:.2009yil.103 bet.
34. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild.- T.: O’qituvchi 1995 y, 205 b.
- 35.O’zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild.-T.: O’qituvchi 1995 y, 205 b.
36. G’ulomov S va b “Ta’lim-tarbiya sifati va qirralari”.T:. Fan va texnologiya 2004yil. 435 bet.
37. G’afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Qarshi. Nasaf.: 2009, -115 b.
38. w.w.w.\pedagog\ Uz
39. w.w.w. /ziyo.net/ Uz

Ilova

Mavzuni ishlash jarayonida Termiz shahridagi 10-umumiyl o’rta ta’lim mакtabining boshlang‘ich sinf o’quvchilari va o’qituvchilari bilan suhbat olib bordik hamda bayram tadbirlarini o’tkazishga harakat qildik.

Ushbu jarayondagi tasvirlardan ilovalar keltiramiz.

Xalqaro miqyosda o’tkazilgan Boysun bahori tadbiri haqida ham o’quvchilarga ushbu tasvirlar asosida tushuncha berildi.

Boysun bahori tasvirlaridan: